

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJIIY TILLAR FAKULTETI
FRANSUZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Rustamov Alijon Sa’dulla o‘g‘li

“5220100 Fransuz tili” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

*Onore de Balzak asarlari o‘zbek tilida
(Yevgeniya Grande asari misolida)*

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbari: o‘q.I.Sultonova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

_____ f.f.n. dots. Y.Xamrayeva

“ _____ ” _____ 2017-yil

Qarshi shahri – 2017-yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ONORE DE BALZAK IJODI VA USLUBIYATI	6
1.1. Onore de Balzak va uning “Inson komediyasi” epopeyasi.....	6
1.2. Balzakning “Yevgeniya Grande” romanida personajlar xarakteri tasviri	12
II BOB. YEVGENIYA GRANDE ROMANIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILINISHI	20
2.1. Fransuz frazeologik birliklarini tarjima qilishda “muvofiqlik tiplari” nazariyasining ahamiyati.....	20
2.2. Frazeologik birliklar tarjimasi	26
III BOB. YEVGENIYA GRANDE ROMANIDA MANTIDAGI XOS SO‘ZLARNING TARJIMADA BERILISHI	39
3.1. Jargon so‘zlar tarjimasi	39
3.2. Vulgar so‘zlar tarjimasi	43
3.3. Realiyalarning tarjimada berilishi	46
XULOSA	52
RESUME	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	55

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasida Prezidentimiz I.A.Karimovning “Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma’naviy tarbiyalashning asosi bo‘lmog‘i kerak”¹, – deya ilm va maorif sohasiga bo‘lgan yuksak e’tiborni, ilmiy jamoatchilik oldiga qo‘ygan talablari asosida madaniy meros, shu jumladan, badiiy ijod va uning tarixiga yangicha yondashuv shakllanmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqimizning qadimiy va boy madaniy merosi, adabiy yodgorliklarini atroflicha, jiddiy tadqiq etish ishlarining qo‘lami kengaydi. Bu borada g‘arb tillaridan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan Yevropa xalqlari tillariga bilvosita va bevosita tarjimalarni asliyat bilan qiyosiy-tipologik aspektda ilmiy tadqiq etish ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, fransuz-o‘zbek tarjimachiligi tarixi ham qariyb yuz yillik tarixni o‘z ichiga oladi. Fransuz adabiyotidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalar tarixi va amaliyoti tarjimashunos olim Muhammadjon Xolbekov tomonidan o‘rganilgan va targ‘ib qilingan².

O‘tgan asr davomida o‘zbek kitobxoni fransuz adabiyoti salaflari bo‘lmish Fransua Rable, Molyer, Volter, Monteskye, Stendal, O.de Balzak, G.de Mopassan, E.Zolya, V.Gyugo, A.Dyuma, G.Flober, J.Sand, P.Merime, A.Frans, F.Moriyak, A.Sent-Ekzyuperi, A.Kamyu, Leklezio, F.Sagan singari adiblarning asarlarini ona tilida o‘qishga muyassar bo‘ldi. Bu tarjimalar xususida, umuman fransuz-o‘zbek va o‘zbek-fransuz tarjimachiligi tarixi, nazariyasi va amaliyoti Respublikamiz olimlari tomonidan keng qamrovda o‘rganilgan.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Onore de Balzakning “Yevgeniya Grande” romanining o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimasida asliyat matnida ifodalangan milliy o‘ziga xoslik (milliy kolorit)ning berilishini o‘rganishni muhim

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – B. 536

² Холбеков М.Н. Французская художественная литература в переводах на узбекский язык (История и переводческий опыт). – Ташкент: 1982. – 20 С.; Xolbekov M.N. Fransuz adabiyoti O‘zbekistonda. Biobibliografik ko‘rsatgich. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1990. – 78 bet.

omil qilib oldik. Muammoning alohida mavzu tarzida o'rganilishi ishimizning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Fransuz adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima nazariyasi va amaliyoti Y.Po'latov, A.Narziqulov, I.Mirzayev, M.Xolbekov, B.Ermatov, O.Rustamov, R.Shirinovalar tomonidan alohida tadqiqot obyekti tarzida o'rganilgan¹. Ulardan M.Xolbekovning doktorlik dissertatsiyasida va A.Narziqulov, I.Mirzayev, B.Ermatov, R.Shirinovalarning nomzodlik dissertatsiyalarida fransuz adabiyotidan o'zbek tiliga o'girilgan bilvosita va bevosita tarjimalarda asliyat matnining milliy o'ziga xosligini saqlash muammosi xususida fikr-mulohazalar yuritilgan. Xususan, I.Mirzayev va R.Shirinovalar o'z tadqiqotlarida fransuz badiiy prozasi tarjimasida xos so'zlar – realiyalarning qay tarzda berilishiga oid nazariy xulosalari alohida ahamiyatga ega.

Ammo hozirga qadar fransuz adabiyotidan o'tgan asrning 60 yillarida o'zbek tiliga o'girilgan tarjima matnlaridagi milliy koloritning (frazeologik birliklar, maqol, matal va realiya-so'zlar) berilishi alohida ilmiy tadqiq qilinmagan.

BMIning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishida:

- fransuz adabiyotidan o'girilgan tarjimalarda milliylikni kasb etuvchi frazeologik birliklarning berilishini qiyosiy-stilistik tahlil asosida baholash;
- milliy ruh singdirilgan maqol hamda mallarning tarjima tilida berilishini ilmiy tahlil qilish va muhim o'rinlarda o'zimizning tarjima variantimizni taklif qilish;
- fransuz adabiyotidan o'girilgan tarjimalarda asliyat matnidagi milliy xos so'zlar – realiyalarning berilishini ilmiy tahlil qilish;

¹ Qarang: Пулатов Ю. Зарубежная литература в Узбекистане и перевода новелл Ги де Мопассана. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1963; Нарзикулов А.М. Французская фразеология и вопросы француско-узбекского художественного перевода. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1969; Мирзаев И.К. Проблема передача слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1975; Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1991; Эрматов Б.С. Французская реалистическая новелла XIX века в переводе на узбекский язык. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991; Shirinova R. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari (Fransuz adabiyotining o'zbekcha tarjimalari misolida). Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. Toshkent, 2002.

- badiiy asarda milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi so‘z va iboralarning bilvosita va bevosita tarjima qilish tamoyillariga munosabat bildirish.

BMIning obyektini Onore de Balzakning “Yevgeniya Grande”, romanining ruscha-o‘zbekcha tarjimalari va ularning asl nusxa matnlari tashkil etadi.

Tadqiqot metodi. BMIning ilmiy-nazariy masalalarini ishlab chiqishda Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” va “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” risolalari¹dagi tarjimachilik sohasini rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari, tarjimachilik sohasidagi yig‘ilgan ko‘p yillik nazariy qarashlarga suyanildi. Shuningdek, ishda taniqli tarjimashunos olimlar Y.Po‘latov, A.Narziqulov, I.Mirzayev, M.Xolbekov, B.Ermatovlar bilan birga chet el olimlari A.V.Fedorov, I.Kashkin, L.S.Barxudarov, Y.Nayda, E.Kari, V.Komissarovlarning ilmiy xulosalaridan foydalanildi. Tadqiqotda asosan lingvistik, qiyosiy chog‘istirma va stilistik tahlil metodlari qo‘llanildi.

BMIning ilmiy yangiligi. Tarjimada milliy o‘ziga xos leksika (frazeologik iboralar va xos so‘zlar)ni saqlab qolishning ekvivalentlik va adekvatlik mezonlari tavsif qilindi. Milliy o‘ziga xos so‘z va birikmalarni tarjimada aks ettirishning tamoyillari: a) ekvivalent tarjima; b) analogik tarjima; v) adekvat tarjima; g) kalka (so‘zma-so‘z) tarjima aniqlandi.

BMIning nazariy va amaliy ahamiyati: Badiiy tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik mezonlarining tavsif va tadqiq qilinishi tarjima tahlili jarayonida obyektiv baho berilishi uchun xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlari xorijiy tillar fakultetlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti kurslarini o‘qitishda va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, rezyume va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan iborat bo‘lib, hajmi 57 sahifani tashkil etadi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008; Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. B. 40.

I BOB. ONORE DE BALZAK IJODI VA USLUBIYATI

1.1. Onore de Balzak va uning “Inson komediyasi” epopeyasi

“Fransuz jamiyati o‘z taqdirining yaratuvchisi bo‘lib chiqdi. Men esa uning kotibiman, xolos. Ehtimol, men barcha tarixchilar nazaridan chetda qolgan tarix – axloq haqidagi tarixni yozishga musharraf bo‘larman. Men bor mahorat va matonatimni to‘plab, XIX asr Fransiyasi haqidagi kitobimni adog‘iga yetkazaman”, deya ta’kidlaydi Onore de Balzak o‘zining “Inson komediyasi” epopeyasiga yozgan so‘zboshisida.

Buyuk fransuz yozuvchisi, inson fe‘l-atvorining bilimdoni, jahon adabiyotida yangi sahifa – tanqidiy realizmning yaratuvchi Onore de Balzak 1799 yilning 20 mayida Fransiyaning Tur shahrida sud chinovnigi oilasida dunyoga keldi. U dastlab Vendom diniy kongregatsiya a‘zolari maktabida tarbiyalandi, otasi Fransua Balsa xohishiga ko‘ra, huquq kollejiga o‘qishga kirdi. Yosh Balzak falsafaga ko‘ngil qo‘yganligi va adabiyotga bo‘lgan ishtiyoqi tufayli Sarbonna universitetiga borib, adabiyotdan ma‘ruzalar tinglaydi, u yerdagi adabiyotshunos va faylasuf olimlar bilan suhbatlar olib bordi va o‘zini butunlay badiiy ijodga baxshida etdi. O‘qishi tamom bo‘lgach, otasi undan Turga qaytib, ishni sudda boshlashini aytganida, yozuvchi bo‘lish istagi havoyi emasligini isbotlash va oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishni istagan bo‘lajak adib otasidan Parijga qolishi uchun ikki yil muhlat so‘raydi. Ota-onasi ham uning qiziqishlariga qarshi chiqishmasdi. Yosh Onoreni Digiyerlar ko‘chasidagi bir uyning mansardasida erkin ijod qilishi uchun ikki yilga qoldirib, o‘zlari esa moddiy yetishmovchiliklar sabab, oilaviy Parij chetrog‘idagi Vilparizi shaharchasiga ko‘chib ketdilar. Bu davr mobaynida adib Pyer Kornel va Jan Rasin ijodidan ilhomlanib, o‘zi yashagan davrning tushkunlik, umidsizlik kayfiyati yaqqol namoyon bo‘lgan “Kromvell” she‘riy tragediyasini yaratdi. Biroz vaqt o‘tib ijod uslubini she‘riy janrdan romanlar yaratishga o‘zgartirdi. Ammo havaskor adibning ijodiga bildirilgan ketma-ket tanqidlar sabab, sekin-astalik bilan o‘sha davr uslubiga moslashib, birin-ketin sarguzasht romanchilik namunalari hisoblangan asarlar yarata boshladi. Bundan tashqari, yashirin taxalluslar ostida qator qissa va novellalar e‘lon qildi.

Biroq bu asarlar ham yozuvchi nomini adabiyot olamiga tanita olmadi. Shundan soʻng u shu paytgacha yozgan barcha asarlarini yozuvchilik uchun mashq deb sanab (Balzak bu asarlarining bahridan oʻtadi), keyinchalik “faqatgina oʻz nomim – Balzak nomi bilan chiqqan asarlarimnigina oʻzimmiki deb hisoblayman”, deya taʼkidlaydi.

1829 yilga kelib, Balzak taxallusi bilan chop etilgan “Shuanlar” nomli birinchi romani oʻz muallifi nomini adabiyot olamiga olib kirdi. Bu asar harbiy-siyosiy roman sifatida tan olindi, yana boshqacha qarashlarga koʻra, tarixiy roman sifatida ham baholanadi. Uning bu yutugʻi muvaffaqiyatlar zanjirining ibtidosi boʻldi. Chunki Balzak fransuz soʻz adabiyotida oʻzining takrorlanmas oʻrniga ega boʻlgan eng sermahsul ijodkor hisoblanadi. Adibning muxlislari uchun uning oʻzigagina xos boʻlgan asar voqealaridagi iztirobli chizgilarining oʻzi yetarli edi. Aytish kerakki, bu chizgilar shubhasiz, adibning uqubatga toʻla hayot yoʻlining inʼikosidir.

Balzak yozishni toʻxtatgan hamono hayotida doimo falokatlar, omadsizliklar yuz beradi. Ayni shu paytda uning eski jarohati – oila tashvishlari yana kundalang turadi. Singlisi Servilaxonim betob, takasaltang ukasi Anri sariq chaqasiz, onasi esa asabiy, edi. Holbuki Balzakning yonida bir su ham puli yoʻq. Oilasi uni bajarib boʻlmaydigan taʼna-dashnomlar va talablar bilan koʻmib tashlayverardi.

Sarosima, ruhiy qiyinchiliklar va muammolar iskanjasida qolgan paytlarida Balzak 1822 yilda uchratib, yoqtirib qolgan ayol de Berni xonim (oʻzidan yigirma yoshlar katta, onasi tenggi mahbubasi)dan yupanch olar edi. Yosh adib bu ayolni ham ona, ham doʻst sifatida qadrlardi. Ayol unga ruhiy koʻmak, hayoti va ijodi borasida foydali maslahatlar berardi. Adib esa uning mehriga javoban, bor-bisotini ayolning xursandchiligi uchun sarflardi.

Dastlabki muvaffaqiyatlari davridan boshlab Balzak oʻzining ijodiy kuch-qudratiga ishonib, muayyan muddatda roman yozib beraman, deb gazeta va noshirliklardan barvaqt pul olishdek xatarli ishlarni odat qilgan edi. U yozishni reja qilgan asarining birinchi satri qogʻozga tushmasdanoq, butunlay sotib yuborilgan boʻlardi. Doʻstlari bu ishdan uni qaytarishga harchand urinmasin, Balzak oʻz

bilganidan qolmasdi. Noshirlarni hali o‘zlari bilmagan va ko‘rmagan romanni sotib olishga, sarlavhasidan boshqa bir satr ham yozilmagan roman uchun gonorar to‘lashga majbur qilish unga alohida huzur bag‘ishlar edi. Ehtimol, u zug‘um qilinganda, boshi uzra qilich o‘qtalib turgandagina tinimsiz ishlashga odatlanib qolgandir.

Balzakning qarzi borgan sari o‘trib bordi, u deyarli yozmay qo‘ydi. Endi nashriyotlar u bilan aloqani uzgan, ustiga ustak unga qarshi ish boshlab, sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilganlar. Sudda Balzak, aslida, g‘alaba qozonadi. Sud adabiyot ahli uchun odil va muhim qaror qabul qildi: agar yozuvchi va’da qilgan asarini yozib tugatish va muddatida topshirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, bundan ko‘rilgan zararni qoplashga majbur emas va Balzak olgan bo‘nagini nashriyotlarga qaytarib bersa, kifoya, deyilgandi sud qarorida. Mana shundan keyin Balzak tinimsiz ijodga o‘tirdi va o‘zining turkum asarlarini ommaga taqdim etdi.

1830 yillarning birinchi yarmida fransuz burjua jamiyatning turli tabaqa vakillari hayotini va axloqini tasvirlovchi “Gobsek” (1830), “Sag‘ri teri tilsimi” (1831), “O‘ttiz yoshli xonim”(1831) asarlarini yozib, 1832 yildan qizg‘in kayfiyatda ijodiy rejalar tuzdi va ularni Parijliklar hayotining o‘sha davrga xos yorqin sahnalari bilan boyitdi. Buning natijasi o‘laroq adib ijodining ajralmas bo‘lagi hisoblanmish “Polkovnik Shaber” (1832-1835), bundan tashqari, o‘sha davr tumanlari hayotini “Tur ruhoniysi” (1832), “Yevgeniya Grande”(1833) orqali, xuddi shunday qishloqlardagi hayot tarzini “Qishloq tabibi” (1833) asari misolida yoritib bergan.

1830-40 yillarning ikkinchi yarmida esa adib o‘zining “Vodiydagi lola” (1836), “Sezar Biroto” (1837), “Nusingenlar uyi” (1838), “Ushalmagan orzular” (1837-1843), “Satanglarning shavkatiyu qashshoqligi” (1838-1847), “Kuzina Bitta” (1846) kabi qator asarlarini yaratdi. Adibning bu asarlarida ham XIX asr fransuz burjua jamiyatining turli illatlar qattiq qoralanadi va sudxo‘rlik, moliyaviy nayrangbozliklar va boylik uchun kurashib, tubanlik botqog‘iga botgan turli toifa kishilarning qiyofasi ochiq-oydin, shavqatsiz tasvirlanadi.

Jamiyat va inson obrazi Balzak ijodining asosiy mavzusiga aylanib qolgan. U o'zining barcha davrlarga xos bo'lgan qarashlarini singdirgan jamiki asarlarini yaxlit bir to'plam holiga keltirib, unga "Inson komediyasi" deya umumiy nom berdi. Yaratilishi jihatidan Dantening "Ilohiy komediya" sini eslatadigan mashhur epopeyada o'zi guvoh bo'lgan va bevosita o'zi yashagan davrning axloqiy muammolar va moddiy yetishmovchiliklar ijtimoiy tengsizlik singari murakkabliklarini ochiq bayon qilgan. Adib "Inson komediyasi" epopeyasiga kiritgan asarlarni uch asosiy rukn: "Axloqiy etyud", "Falsafiy etyud" va "Analitik etyud" ostida birlashtirib, epopeyaga kiritilishi maqsad qilgan 145 ga yaqin katta-kichik asarlardan, 97 tasinigina yozishga ulgurdi. Bu yo'nalishda uning zamondoshi, ingliz yozuvchisi Valter Skot ham epopeya yaratgan. Zamondoshining asari xususida Balzak shunday yozadi: "V.Skot tarixning qadr-qimmatini o'zida aks etgan roman yaratishga erishgan, ammo asarning tarkibiy qismi, voqealar rivoji haqida o'ylamagan". Bu asarda Balzak tasavvuriga xos ikkita g'oya ilgari surilgan: o'z davri axloq qoidalari to'liq tarixini yaratish va bu tarixning har bir bo'limi butun bir roman darajasida mukammal bo'lishi, asarda ikki yoki uch ming obrazni yaratishdan oldin ularni sinflash orqali bir-biriga bog'lash talab etilgan.

Balzak asarlarining ko'lami va sifati borgan sari oshib bordi. Adabiy tuzatishlar va vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan ilhom sabab asardagi obrazlar va bosh qahramonlarning ismlari o'zgartirilardi. Muallif asar qahramonlariga bevosita yaqin qarindoshlik munosabatlarining yorqin ko'rinishlarini o'ylab topdi va voqelikni yoritishda o'tmish bilan hamnafas uslubdan foydalandi. YA'ni, uning bir asaridagi qahramonini keyingi ijodiy namunalarida qayta uchratishdan hecham ajablanmaslik kerak, aksincha, bu turkum asarlardagi yaxlitlik hamda voqealardagi davomiylikni ifodalaydi.

Masalan, "Gorio ota" romani "Inson komediyasi" jamlanmasi uchun eng muhim manba hisoblanadi. Asarda Gorio otaning otalarcha mehr-muhabbati haqida gap borganda, Balzak, albatta, bu ehtiroslar ularning qalbini yemirib boruvchi og'ir jarohatday zo'rayib borishini va natijada boshqa hamma tuyg'ularni

muqarrar tarzda yanchib tashlashini ko'rsatib beradi. Romanning boshida biz tanishgan Gorio ota bir qarashda hali bu mushkul vaziyatdan qutilib keta oladiganday tuyuladi. Keksa vermishelchi mol-mulkinging ancha-muncha qismini qizlariga sarflab, endilikda o'zi Voke pansioni (haroba kvartira bo'lib, u yerda ijarada turadiganlarning aksariyat qismini qashshoq talabalar tashkil etadi)da xoli va yolg'iz hayot kechiradi, lekin hali g'amlab qo'yilganlaridan u-bu narsalar qolgan edi. Balzakning niyati shundaki, u o'z qahramonini bir yon berishdan ikkinchi yon berishga, bir mahrumlikdan yana boshqa mahrumlikka olib o'tar ekan, uni ko'r-ko'rona halokat yoqasiga olib kelmoqchi bo'ladi. Bu niyat uning ko'pchilik asarlarida o'zgarmasdan qoladi. Balzak bu asardan so'ng "Inson komediyasi"ning eng muhim xususiyati hisoblanmish "qayta yaratilgan obraz" uslubidan foydalanib ijod qildi. "Gorio ota" romanidagi personaj nomlari va voqealar adibning keyingi asarlarida davom ettirib boriladi.

Fransuz yozuvchisi Andre Morua bu roman xususida shunday fikr bildiradi: "Ayni "Gorio ota" romanida Balzak tomonidan yaratilgan dunyo shu qadar ishonchli sifatlar kasb etadiki, ularni haqiqiy hayotdan farqlash qiyin bo'lib qoladi".

Balzak zamondosh adiblarga ehtirom ko'rsatishda ham e'tiborli edi, xususan, "XIX asr fransuz yozuvchilariga maktub"ida davlat ustidan hukmronlik qilishda quroldan ko'ra g'oyaning roli ustunligini ta'kidlaydi, shu bilan birga, ularni ham Yevropa ustidan qurol bilan emas, balki so'z qudrati bilan hukmronlik o'rnatishga da'vat etadi. Adibning ta'kidlashicha, "ijodning shirin mevasi natijasiz g'aflatga olib keladi va yozuvchi uchun bundan hech qanday naf yo'q". Binobarin, adib butun umri davomida o'ziga cheklovlar qo'yib, ijod borasida o'zidan qoniqmaslik hissi bilan yashagan.

Balzak "Inson komediyasi" obrazlari orqali "Balzakona" chizgilar yaratgan va umrining so'ngiga qadar shu "dunyo" ichida yashagan. Chunki adib tasavvurida obrazlar, adabiy muhit hamda vaziyatlar yaratishda beqiyos qobiliyatga ega edi va bularning barini adibning o'zigagina xos bo'lgan murakkab adabiy chizgilarida uyg'unlashtirardi.

“Menga g‘ayritabiiy xilqatlar yoqadi, deb yozadi Balzak J.Sanga, ularning orasida yolg‘iz men mavjudman, boz ustiga ularni ifodalashda o‘zimdagi ehtiyoj sezdim va ularni keraksiz o‘rinlarda hech ham qo‘llamadim. Aytishim kerakki, sizlar e‘tibor bermaydigan oddiy xalq kundalik hayotiga xos so‘zlar men uchun doimo qiziqarli bo‘lgan. Men ularni kengaytirdim, jonlantirdim va ularga yangicha ma’no baxsh etib, beo‘qshov ko‘rinishlar o‘rniga ma’nodor va jimjimador chizgilarni qo‘lladim”.

Pyer Barberi “Inson komediyasi” haqida shunday deydi: “Adib bu asarda an’anaviy vositalardan foydalanib, asarlarini kitobxonlar qalbidan joy oladigan darajada mukammal va tushunarli bo‘lishini xohlagan edi”.

Emil Zolya esa, doimo bir fikrni ilgari surgan: “Zamonaviy fransuz eposi Balzak va uning ijodiy topilmasi hisoblanmish “Inson komediyasi” asosida shakllandi”.

Onore de Balzak boylikka xirs qo‘ygan burjua sinfining jirkanch qiyofasini, buzuq ahloqini to‘g‘ri tushuna olgandi. Balzak inson psixologiyasining chuqur bilimdoni ham edi. Buni biz adibning barcha asarlarida kuzatamiz. Shuning uchun ham “buyuk insonshunos”ning bu san’ati jahon adabiyotida yangi oqim – tanqidiy realizmni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Balzak o‘zining “Inson komediyasi” turkumini yaratish bilan zamonasining hushyor ziyolisi, qalami o‘tkir satirik yozuvchisi, bilimdon faylasufi sifatida jahon adabiyotida o‘chmas iz qoldirdi.

Haqiqatdan ham, Balzakning hayoti va ijod yo‘li mushkulotlar bilan to‘lib toshgan. Oilaviy iztiroblar va tinimsiz mehnat adib sog‘ligining yomonlashuvchiga sabab bo‘ldi. Uzoq yillardan buyon xat yozishib kelgan mehribon do‘sti Evelina Ganskayaga uylanish niyatida 1850 yilning erta bahorida Ukrainaga keladi. 14 martda esa Balzak va Ganskayalarning nikoh marosimi bo‘lib o‘tadi. Bundan xursand bo‘lib, Balzak Parijlik sirdosh do‘sti Zyulma Karro xonimga xat yo‘llaydi: “Menga hayotimning na baxtli bolaligidan, na navqiron yoshligimdan to‘yib bahra olish nasib etdi. Aftidan umrimning qolgan qismi totli o‘tadigan ko‘rinadi”. Nadomatlar bo‘lsinki, bu baxt sevimli adibimizga nasib etmadi. Uning kasali oydan-oyga zo‘rayib borgan adib rafiqasi bilan Parijga qaytdi va avgustning 18

sanasida dunyo adabiyot ahli o'zining buyuk yozuvchisidan ajralib qoldi. "Bugun fransuz xalqiga juda og'ir kun bo'ldi. Janob Balzak barcha buyuklarning buyugi, ulug' insonlarning ulug'i edi... u yozib qoldirgan asarlar zamonamizni to'liq va yorqin kartinalarda aks ettiruvchi hayot sahifasini tashkil etadi", degan edi dafn marosimida so'z olgan yozuvchi Viktor Gyugo.

1.2. Balzakning "Yevgeniya Grande" romanida personajlar xarakteri tasviri

Buyuk adib Onore de Balzak qoldirib ketgan boy adabiy merosni bir tadqiqotda bir yo'la baholab, tahlil qilib bo'lmaydi. Zero, adibning qalamiga mansub to'qson bir asarda butun bir davr, bir dunyo tashvishlari, bir necha avlod ma'naviy olami qamrab olingan. Shunday ekan, biz tadqiqotimizning ushbu bandida Balzakning "Yevgeniya Grande" romanida personajlar xarakteri tasviri, uning individual ijodiy uslubining ayrim qirralarini yoritishga harakat qilamiz.

Onore de Balzak inson bilan u yashayotgan ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni yoritishga, badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga katta hissa qo'shgan adiblardan biridir. Yozuvchi o'z asarlarida inson ma'naviyatining turmush sharoitlariga bog'liqligi, kishi o'zi yashayotgan ijtimoiy sharoitga moslashuvining turli shakllari mavjudligini boshqa adiblarga nisbatan to'laroq va ishonchliroq tahlil qiladi.

Voqea, hodisalar ro'y berayotgan joy, uy va holatning ana shunday batafsil tasviri yozuvchi Balzakning "Yevgeniya Grande", "Dehqonlar", "Biatris" kabi qator asarlarida moddiy-maishiy muhit tasviri naqaqat hikoyaga, bayonga kirish vositasi, balki ko'pgina holatlarda asar qahramonlari bilan qatorda turuvchi o'ziga xos adabiy personaj sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, Balzak hodisalar va qahramonlarni bu xilda batafsil tarvirlashni turlicha, xilma-xil maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanadi.

Balzak obrazlar xatti-harakati, murakkab munosabatlarni ko'rsatishga bo'ysundirilgan voqea-hodisalarni, detallarni batafsil bayon qilish bilan birga eng avvalo, vaziyat – tasvir uchun sahna yaratadi, shundan keyin o'sha sahna

markazidagi qahramonni “qabariq ko‘zgu” usulida psixologik tahlil va tadqiq etadi.

Yozuvchi qahramonlarini o‘rab turgan moddiy-maishiy muhit haqida uning inson ongi, shuuri, xatti-harakatiga ta’siri haqida so‘z yuritarkan, tor ma’nodagi muhitni hayotdagi asosiy mezonlarning murakkab majmuasi sifatida qaralovchi keng ma’nodagi muhitdan farqlamaydi. Yozuvchi asarlaridagi birlik va umumiylik, insoniylik va yovuzlikning turli-tuman ko‘rinishlari kishilarning turfa xarakterlarini shakllantirishga vosita bo‘ladi. Jumladan, Balzak yaratgan Gobsek, Grande va Gorio ota kabi qahramonlar uchun hayotning asosiy mazmuni pulga, mol-mulkka ro‘ju qo‘yishda, boylikka sajda qilish ilinjida yonishida namoyon bo‘ladi.

Balzakni yozuvchi sifatida faqat muhit va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar emas, balki shu muhitda yashovchi shaxslarning o‘zaro munosabatlari ham qiziqtiradi. Adib qahramonlari asosan u yoki bu darajada teng, yaqin moddiy-maishiy sharoitlarda yashashadi. Yozuvchi o‘z asarlarida ular o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritarkan, nafaqat ijtimoiy muammolarni, balki insonlar o‘rtasidagi axloqiy muammolarni, ularning ichki tuyg‘ularini ham haqqoniy ochib berishga intiladi. Shu sababli adib qalamiga mansub aksariyat asarlarning uslubi u yoki bu darajada personajlar ichki dunyosining tahlili bilan bevosita bog‘liq. Biroq adib qay bir personaj haqida so‘z yuritmasin, o‘zi muhim deb hisoblagan xislatlarni ko‘rsatishni vazifa qilib oladi va shunga muvofiq so‘zlar, bo‘yoqlar, obrazlar, syujet, kompozitsiya singari qator ifoda usullarini qo‘llaydi.

Ma’lumki, individual uslubda hayotni obrazli o‘zlashtirishning ifoda usuli voqelik jarayonlari, narsa-hodisa xususiyatlari insoniy xarakterlarni ma’lum bir g‘oyaga buysundirib, kitobxonga yetkazish, unga estetik ta’sir etishni amalga oshiradi. Individual uslubdagi badiiy energiya “tarqatuvchanlik” funksiyasi adabiy hodisa ichki strukturasi shakllanishida muhim funksiyani bajaradi. Bundaye ko‘rinadiki, individual uslub voqelikni obrazli o‘zlashtirishning ishontirish va estetik ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan ifoda usullari yig‘indisini anglatadi.

M.B.Xrapchenko fikri bilan aytganda, individual “uslub hayotni obrazli o‘zlashtirishning ifoda usuli, kitobxonni ishontirish va zavqlantirish usuli”dir¹.

Balzak asarlarida individual uslubning yuqorida ta’kidlangan har ikkala komponenti, ya’ni hayotni badiiy o‘zlashtirish bilan bog‘liq tasvir va badiiy matnning kitobxonni hayajonlantirish funksiyasi bir-biri bilan uzviy aloqada amal qiladi. Yozuvchi XIX asr fransuz jamiyatining bir bo‘lagi, bir qismi hayotini obrazli ifodalash bilan birga, shu ifoda, shu tasvir orqali kitobxonga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatishga ham erishadi.

Balzakning diqqat-e’tibori o‘z davri hayotining barcha jabhalariga singib borayotgan pulga, mol-dunyoga ruju qo‘yishni ayovsiz ravishda fosh etishga qaratilgan edi. Adib or-nomusni yig‘ishtirib qo‘ygan ishbilarmonlar, berahm va beshafqat sudxo‘rlar obrazlarining butun bir turkumini yaratdi. Ular orasida Baron Nusingen, graf de Resto, Grande va Gobsek kabi qator kimsalar bor. Bu obrazlarni yaratishda Balzak “barcha narsadan ustun turuvchi” mol-dunyo orttirishga intilish va insoniy hissiyotlar, pok, nozik tuyg‘ular o‘rtasidagi to‘qnashuvni yorqin aks ettirishga alohida e’tibor qaratadi. Bunday ziddiyatlar tasviri yozuvchining qator asarlarida va ayniqsa, “Yevgeniya Grande” romanida yaqqol o‘z ifodasini topgan.

Romanda asosiy konflikt, avvalo keksa Grandening hayotiy tajribasi va aqidalari bilan yozilgan yolg‘iz Yevgeniyaning hayotiga munosabati va axloqi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, asarning asosiy kolliziyasi faqat ota-bola munosabatidagina iborat bo‘lib qolmay, balki keksa va yosh Grandelar qalbida ro‘y berayotgan insoniy tuyg‘ular bilan boylikka ruju qo‘yish o‘rtasidagi kurashda ham ko‘rinadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, asarning markazida asosan ikki obraz – keksa Grande va uning qizi Yevgeniya turadi. Keksa Grande obrazining chuqur va ishonarli chiqishiga monelik qilgan narsa roman kompozitsiyasi bilan uzviy bog‘lanadi. Bu romanda ham Balzak o‘z ijodiy uslubiga sodiq qolib, voqealar bayonini ular ro‘y berayotgan muhit tasviridan boshlaydi. Yozuvchi asar g‘oyasini

¹ Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы, М. “Наука”, 1972, с. 104.

ochishda Grandelar oilasining yashash joyini tasvirlashga katta e'tibor beradi. Jumladan, bu asar quyidagicha boshlanadi:

“Ba’zi chekka shaharlarda shunday uylar bo‘ladiki, ular tashqi ko‘rishini bilanoq, tim qorong‘i monastirlar, shumshuk cho‘llar yoki g‘amgin xarobazorlar kabi kishi dilini siyoh qiladi. Ehtimol, bu uylar ayni vaqtda monastir singari sukunatga cho‘mgan, cho‘llar kabi huvullagan, hayotdan nom-nishon qolmagan vayronadek mudhishdir. Bu uylarda hayot va harakat shu qadar sokindirki, ko‘chadan notanish oyoq tovushi eshitib, derazadan qoni qochgan, rangpar yuzini ko‘rsatib, shamday qotib turgan odamning sovuq nazariga odamning ko‘zi tushmaguncha, bu uy egasiz qolgan deb o‘ylash mumkin. Somyurdagi, shahar chekkasidan qasrga olib boradigan do‘ng ko‘cha oxiridagi uyning tashqi ko‘rinishi ham kishi ko‘nglini mana shunday g‘ash qiladi... Bu uylarning qorayib, o‘yilib ketgan deraza tokchalari, undagi naqshlar arang ko‘zga tashlanadi; bu tokchalar bir bechorahol, zahmatkash ayol parvarish qilgan chinnigul yoki atirgullarning qop-qora sopol tuvaklari uchun juda torlik qiladigandek tuyuladi. Sal narida kattakon darvoza uning hamma yog‘iga katta-katta qalpoqli mixlar qoqib tashlangan” [Yevgeniya Grande, 5-6 betlar. Keyingi o‘rinlarda bu asar YE.G. qisqartmasida keltiriladi.]

Bu janob Grandening uyi. U kun tushmas, bir pastqamlikda joylashgan bo‘lib, “u ha deganda ko‘zga tashlanmaydi” [YE.G., 9-bet]. Uddaburo va ishbilarmon Grande tijorat ishlarida, pul xususiga kelganda “yo‘lbars yoki ilonga o‘xshar edi: yerga yotib, kulcha bo‘lib olar, o‘ljasiga uzoq vaqt ko‘z tikib, birdan uning ustiga tashlanar, so‘ngra hamyonining og‘zini katta ochib, navbatdagi ekyu hissasini yutib yuborar, keyin nafsi picha orom olib, ovqatni hazm qilishga yotgan ilonday sovuq, beparvo ravishda asta kulcha bo‘lib, olardi... Smyurda Grandening “yumshoq” temir panjarasiga tushmagan odam bormikin?..” [YE.G., 12-bet].

Yozuvchi bu keksa Grandening butun xatti-harakatlari, orzu-istaklari mol-dunyo orttirish, boylik to‘plashdan iborat ekanligini yorqin va ishonarli tarzda ko‘rsatib beradi. Keksa Grande yirik-yirik tijorat ishlarini kundalik hayotdagi

mayda-chuyda ishlar, hamma narsani jamg'arish va doimiy ravishda qat'iy tejash, oila sarflarini, o'z harajatlarini cheklash bilan birga qo'shib olib boradi.

Grande xarakteridagi hasislik va ziqnalikni ko'rsatish uchun Balzak turli xil unsurlar, buyumlar va predmetlardan keng foydalanadi: kuzgi va bahorgi sovuqlarga qaramay, Grandelar xonadonida kamin faqat 1 noyabrda yoqilib, 31 martda o'chiriladi; hasis xizmatkor ayol Naneta va qizi Yevgeniyaga keksa Grande tunda ishlatiladigan shamni qat'iy sanab beradi; har xil yeyiladigan oziq-ovqatlarni va nonni o'sha kuni tongda sanab, o'lchab beradi; butun oila uchun esa kechqurun faqatgina bir dona sham yoqiladi va shu kabilar.

Balzak keksa Grandening hasisligi, ziqnaligi, xarakteridagi ortiqcha tejab-tergashga intilish xususiyatini asar davomida yana ko'plab misollar orqali to'la va ishonarli tasvirlab boradi. Masalan, keksa Grande jiyani Sharl mehmonga kelgandan keyin xizmatkor Noneta bilan suhbatda hech tortinmay ziqnalik, hasislik xususiyatini namoyish etadi:

Taqsir, menga endi un bilan yog' bering, bolalarga patir yopib beray.

Nima?! Jiyanimning sharofati bilan meni xonavayron qilmoqchimisani?

Menga itingiz ham baravar, jiyaningiz ham. Jiyaningiz to'g'risida siz qancha o'ylasangiz men ham shuncha o'ylayman... o'zingiz hozir menga atiga olti chaqmoq qand bermadingizmi? Vaholanki, sakkiz chaqmoq kerak.

Shunaqa degin! Naneta, hech bunaqa emas eding-ku. Nimalarni o'ylayapsan? YO uyning xo'jayini senmisan? Olti chaqmoqdan ortiq qand bermayman.

Xush, jiyaningizchi, kofeni nima bilan ichadi?

Ikki chaqmoq qand bilan ichadi. Men qandsiz ichaveraman.

Voy sho'rim, qarigan chog'ingizda qandsiz ichasizmi? Undan ko'ra sizga o'z yonimdan qand sotib olib beraman...

Duxovkaga yana o'tin kerak, – dedi tinchimagan Naneta.

Ha, mayli, keragicha ola qol, – dedi Grande xayol surib, – unday bo'lsa, birato'la bizga xo'l mevadan tort pishirib berasan, keyin boshqa ovqatlarni ham duxovgada pishirasan: o'zingga oson bo'ladi, ikki joyda o't yoqib o'tirmaysan...

Taqsir, – dedi Naneta. Grande ikkinchi safar bog‘dan meva olib chiqib uning eshigini qulflab kelganda, – haftada bir-ikki marta sho‘rva pishirib tursak, mehmonning sharofati bilan...

Mayli.

G‘izillab qassobga borib kelay bo‘lsama.

Hech hojati yo‘q: parranda go‘sh tidan qaynatasan sho‘rvani, dehqonlar seni ishga ko‘mib tashlashadi hali. Men Kornuayyega aytaman, qarg‘a otib olib keladi. Dunyoda qarg‘a sho‘rvadan shirin bo‘lmaydi.

Qarg‘alar o‘laksaxo‘r bo‘larmish, shu rostmi, xo‘jayin?

Sening esing past ekan, Naneta! Qarg‘alar ham yorug‘ dunyodagi barcha jonivorlarga o‘xshab topgan narsasini yeydi. Axir, biz o‘zimiz ham o‘liklar hisobiga yashamayapmizmi? Chunonchi, merosni ol, nima o‘zi u? (YE.G., 67-68 betlar)

Balzak keksa Grandening hasis, ziqnaligini tasvirlar ekan, faqatgina qahramonlarning yuqoridagi singari o‘z-o‘zini fosh qilish usulidan foydalanibgina qolmay, boshqa personajlarning nuqtai nazari, Grande munosabati, nutqi, suhbatidan ham unumli foydalanadi. Masalan, Sharlga ajratilgan xonani ko‘rib chiqqan Yevgeniya onasiga yuzlanadi:

Oyijon, – dedi u (Yevgeriya), – bu moy shamning hadi akamning dimog‘iga yoqmaydi. Mum

Yevgeniya, o‘ziga oylik harajat uchun berilgan yuz sumlik tangani hamyonidan olish uchun bamisoli qushdek yengil qanot qoqib o‘rnidan turdi.

Ma, ol, naneta, g‘izilla.

Shu payt Grande xonim qizining oliy nav Serves chinnisidan yasalgan qadimiy qandonni ko‘rib, qo‘rqib ketganidan e‘tiroz bildirdi:

Dadang ko‘rsa nima deydi?

Bu qanddonni Fruafon qal‘asidan Grandening o‘zi olib kelgan edi.

Qandni qayoqdan olasan?

Oyijon, Naneta sham bilan birgan qand ham olib keladi.

Dadang nima deydi?

Axir o‘z jiyanlari uyimizda bir stakan shirin suv ham icholmasa uyat bo‘lmaydimi? Keyin shuniyam ko‘rib o‘tiribdilarmi?

Dadangning ko‘zi hamma narsani ko‘radi, – dedi Grande xonim boshini sarak-sarak qilib. (YE.G., 45-bet).

Grandelar xonadonida keksa Grande yakkayu-yagona hokim, faqat uning aytgani-aytgan, degani-degan, uning gapini oilada hech kim ikki qila olmaydi, bu uyda Grandening xohish-istagi bo‘yicha ish qilinadi. Grande xonim, uning qizi Yevgeniyadan keyin xizmatkor qari qiz Naneta ham bu oiladagi ana shu sharoitga, tejab-tergashlarga ko‘nikib ketgan: “Bu bechora qiz muhtojlik tufayli shu qadar hasis bo‘lib qolgan ediki, Grande bora-bora uni xuddi vafodor itni sevgandek sevib qoldi, oqibat Naneta o‘z bo‘yniga mixlar qadalgan bo‘yinbog‘ taqishlariga imkon berdiki, buyinbog‘ning mixlari endi uning bo‘ynini yaralamasdi...” [YE.G., 23-bet].

Hissiyotlardan mutlaqo xoli cholning ham kamchiliklari, “hayotiy qusurlari” bor. Keksas Grande o‘zining yolg‘iz qizi Yevgeniyaga qattiq bog‘lanib qolgan. Dunyoda u faqat Yevgeniyani yaxshi ko‘radi, uni yeru ko‘kka ishonmaydi. Biroq aynan shu yolg‘iz qizga otaning xatti-harakati, qiliqlari yoqmaydi, aynan shu yolg‘iz qiz o‘zi bilganicha, otasining rejalarini buzib ish ko‘radi. Qizini juda yaxshi ko‘rishiga qaramay, keksa Grande biror masalada ham Yevgeniyaga yon berishni, unga quloq solishni istamaydi. Chol dunyoda o‘zi qilayotgan ishni, o‘zi tanlagan yo‘lni yagona to‘g‘ri yo‘l, to‘g‘ri ish, deb hisoblaydi. Cholning hasisligi, mol-mulk to‘plashga intilishi shu darajaga yetadiki, xotini Grande xonim og‘ir betob bo‘lib qolganida notariusni chaqirib, qizini onasining merosidan voz kechishga, barcha mol-mulkdan foydalanish huquqini otasiga berishga qaror qilingan akt tuzish haqida ko‘rsatma beradi. Qizi notariusning bunday shartlariga ko‘ngach, chol terisiga sig‘may quvonadi. Buni uning qiziga aytgan quyidagi so‘zlaridan ham payqash mumkin:

“ - Sen, butam, otangga jon bag‘ishlading, lekin faqat otang senga bag‘ishlagan jonni qaytaryapsan: biz ora ochiq bo‘ldik! Ish mana shunday bajarilishi kerak. Hayot – ish demakdir. Seni duo qilaman! Sen himmati baland

qizsan, otangni juda yaxshi ko‘rasan. Endi ko‘ngling tusagan ishni qilaver. Demak, ertagacha xayr...” [YE.G., 180-bet].

Ko‘rinadiki, Grandening mol-dunyo yig‘ishga intilishining cheki, chegarasi yo‘q, unga charchash, toliqish butunlay yot, begona. U mol-dunyo, oltin-kumush, boylik deganda har qanday axloqiy, insoniy mezonlarni inkor etadi. O‘lim to‘shagida yotgan Grandening fikru xayoli faqat o‘zi to‘plagan oltinlarda. Biroq bu oltinlar uni o‘limdan saqlab qololmaydi.

Romanda qalbi pok, hozirjavob, atrofidagi kishilarga ishonuvchan va ko‘ngilchan Yevgeniya Grande hayot munofiqlaridan azob chekuvchi inson sifatida tasvirlanadi. Qiz bu munofiqliklarga, makr-hiylalarga qarshi kurashibgina qolmaydi, balki hayotda taqdir zarbalariga ham chidam bilan bardosh beradi, o‘zini qurshab turgan insonlar davrasida Yevgeniya “shu dunyoda yashab turib, o‘zi bu dunyoniki bo‘lmagan, xotinlik va onalik ulug‘vorligi uchun yaratilib, na er, na bola va na oila qurgan ayol” [YE.G., 211-bet] hisoblanadi. Asarda Yevgeniya Grandening mana shu vazifasi juda ta’sirli ifodalangan.

Balzak ijodida personajlarning xatti-harakatlari his-hayajon orqali emas, balki aniq maqsad orqali aks ettiriladi. Maqsad personajlarni tashqaridan harakatga keltiradi. Balzakni yozuvchi sifatida dastavval insonni o‘rab turgan va unga o‘z hukmini o‘tkazayotgan narsalar qiziqtiradi. Uning qahramonlari boylik, shon-shuhrat, huzur-halovat uchun hech narsadan tab-tortmaydilar, yuqorida ta’kidlangani singari, bu yo‘lda barcha insoniy va axloqiy fazilatlarni tamomila unutadilar. Zero, Balzak ijod qilgan davr Fransiyada, qolaversa, butun Yevropada burjuaziya ijtimoiy munosabatlari rivojlanib odatga kirgan davr bo‘lib qolmay, balki inson ongi o‘ziga xos ravishda o‘zgarib, yangi hayot sharoitlariga moslashib borayotgan davr edi. Bu davrning asosiy belgilari haqida fikr yuritgan adibning o‘zi “ijtimoiy tuzum insonlarni o‘z ehtiyojlariga shu qadar moslashtirib, majruhlashtiradiki, natijada ular o‘zlariga aslo o‘xshamay qoladilar”.

Umuman olganda, buyuk realist yozuvchi Balzak yaratgan Grande obrazi XIX asar tarixiy voqeligining asosiy shakl-shamoyillari va xususiyatlarini ochib beruvchi yirik badiiy obrazdir.

II BOB. YEVGENIYA GRANDE ROMANIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILINISHI

2.1. Fransuz frazeologik birliklarini tarjima qilishda “muvofiqlik tiplari” nazariyasining ahamiyati

Xalq tarixidagi har bir davr so‘zlashuv nutqida o‘z tabusini yaratadi. Tabuning xarakteri madaniy an’anaga, hukmron bo‘lgan adabiy-badiiy uslubga, axloqlilik darajasi va h.k.ga bog‘liq. Har bir ijtimoiy o‘zgarish tabulanish hodisasidan kelib chiquvchi boshqa frazeologik birlik (keyingi o‘rinlarda – FB)larni yuzaga keltiradi. Garchi tabu so‘zlashuv tiliga mansub bo‘lsa-da, bunday tildagi hodisalar har gal o‘z stilistik bo‘yog‘i, nozik ma’nosi bilan farq qiladi. Masalan, mourir fe’li o‘rniga xolisona so‘zlashuv tilida s’en aller, gutter la vie, yoki o‘zbek tilida – olamdan o‘tmoq, bu dunyo ishini tugatmoq deb aytish mumkin. Fransuz tilining betakalluf so‘zlashuv uslubida – tourner l’œil, casser la pipe, dile bonsoir à la compagnie, o‘zbek tilida – asfolasofilinga jo‘nadi, joni chiqdi.

Fransuz va o‘zbek tillarida mazmuni yoki shakli bo‘yicha mos keladigan FBlar nisbatan kam uchraydi. Biroq bunday mos kelishlarni butunlay inkor etish xatodir. Ular uchrab turadi, ammo rus va o‘zbek tillaridagiga qaraganda nisbatan oz miqdorda uchraydi. *Погода испортилась, ветер поднялся – Havo aynib, shamol turdi*¹ kabi jummlarni shunga kiritish mumkin. Ruscha so‘z va jummlarning o‘zbek tiliga o‘zlashib ketishi tez-tez kuzatilmoqda.

Fransuzcha frazeologiyani o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qonuniy muvofiqliklar muammosi ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, Y.I.Retsker “muvofiqlik tiplari” nazariyasini ancha to‘laroq ishlab chiqqan². Biz to‘g‘ri deb hisoblagan uning nuqtai nazaridan, “tarjima jarayoni tahlili chog‘ida barqarorlik darajasiga bog‘liq ravishda qonuniy muvofiqliklarning uchta kategoriyasini belgilash mumkin: ekvivalentlar, analoglar va adekvat almashuvlar

¹ Qarang: F.Саломов. Тил ва таржима. Тошкент, “Фан”, 1966, Б. 182.

² Рецкер Я.И. О закономерных соответствиях при переводе на родной язык. Сб. “Теория и методика учебного перевода”, М., Изд-во АПН РСФСР, 1950, стр. 156-183.

yordamida tarjima qilish... mohiyatan, bu uchala kategoriya bir maqsadga – adekvat tarjimaga erishish sari olib boruvchi turli yo‘llar hisoblanadi”¹. Y.I.Retsker qonuniy muvofiqliklarning mana shu kategoriyalaridan har biriga ta’rif beradi:

“1. Ma’lum makon va zamon uchun kontekstga bog‘liq bo‘lmagan doimiy bir xil ma’nodagi muvofiqliklar *ekvivalent* deb hisoblanishi lozim (157-bet).

2. *Analog* – bu ehtimol tutilgan bir qancha sinonimlardan bittasini tanlab olish vositasida analogiya bo‘yicha qilingan tarjima natijasi... Har bir frazeologik birlikka va har bir sintaksik shaklga bir nechta sinonimlik shakllari mos kelishi mumkin (158-bet).

3. Fikrni aniq berish uchun tarjimon asliyat matnidan, lug‘at va jumla muvofiqliklaridan uzilishi, butundan: mazmun, g‘oyaviy yo‘nalish va asliyat uslubidan kelib chiqib, vazifa yechimini qidirishi kerak bo‘lganda *adekvat almashuv*ga murojaat qiladi. Biroq asliyat barcha unsurlarini o‘zaro hamkorligini hisobga olishga asoslangan adekvat almashuvda ham... ma’lum qonuniyatlar bo‘lishi mumkin” (158-bet)².

Shundan keyin Y.I.Retsker tarjima jarayonida uchala kategoriyaning o‘zaro hamkorligi to‘g‘risida va tarjima qilinayotgan subyekt ongida ularning tug‘ilish izchilligi to‘g‘risida yozadi. “Tarjima jarayonida uchala usul (ekvivalentlar, analoglar va adekvat almashuvlarning joylashuvi) odatda bir-biri bilan chatishib ketadi, goho bu hol birgina jumla doirasida kechadi. Tabiiyki, eng avvalo, tarjimon ongiga tegishli ekvivalentlar paydo bo‘ladi... Keyin o‘xshash (analogik) qurilmalar (konstruksiylar) va leksik hamda frazeologik analoglar, ya’ni odatdagi til muvofiqliklarining joylashuv jarayoni davom etadi. Shundan keyin ekvivalentlar va analoglar ochib bermagan jumla unsurlari uchun tarjimon adekvat almashuv usullaridan foydalanadi” (158-bet).

Bu uchala usul o‘zaro qanday moslashuvini va Retskerning aniq ta’rifini takrorlagan holda “goho birgina jumla doirasida ham bir-biriga chatishib ketishi”ni

¹ Retsker Y.I. O‘sha manba, B. 156-157. Bundan keyin betlar matnda, tegishli ixtibosdan keyin ko‘rsatiladi.

² Qonuniy muvofiqliklarning Y.I.Retsker taklif etgan “kategoriyalar”ni e’tirof etgan holda quyidagilarni aytib qo‘yishni zarur deb bilamiz: tarjimaning uchinchi usulini “adekvat almashuv” deb emas, balki “yonma-yon tafsiriy usul” deb atashni afzal deb bildik, umuman tarjima tavsifi uchun “adekvat” atamasidan voz kechamiz. Bizning nuqtai nazarimizdan, adekvatlik haqida matnning alohida unsuriga nisbatan aytish to‘g‘ri kelmaydi.

tasavvur qilish uchun Y.I.Retskerning umumlashtiruvchi mulohazasini keltirdik. Bizni o'zga til matnini qayta tiklash uchun ushbu usullarning bir-biriga nisbati ham, frazeologik oborotlar tarjimasining biz o'rganayotgan holda ular kasb etgan alohida ahamiyati ham va nihoyat, fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishdagi ularning o'ziga xos vazifasi ham qiziqtiradi. So'nggi ma'noda ekvivalent va analogik muvofiqliklarning ba'zi alohida guruhlarini ta'kidlash muhim.

I. Ma'nosi, stilistik funksiyasi, leksik tarkibi bo'yicha mos keluvchi frazeologik ekvivalentlar. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: *mettre le pied – qadam qo'ymoq, faire signe – ishora qilmoq, la guerre froide – sovuq urush* va h.k.

Il avait répété: “Non, je n'avais jamais mis les pied ici, c'est comme cela que vous dites?” en riant comme d'un mot d'esprit.

“Нет, моя нога здесь не ступала, – так французы, кажется, говорят?” – спросил он и расхохотался, слова сказал что-то остроумное.

“Keyin, – fransuzlar oyog'im bu yerlarga tegmagan, deyishadi, shekilli, shundaymi?” deb so'radi-da, go'yo askiya qilgan odamday qah-qahlab, kulib yubordi.

Metonimiya asosida yuzaga kelgan *mettre le pied* FB o'zbek tilidagi *qadam qo'ymoq, qadam bosmoq, oyog'i tegmoq* FB'larga mos kelishi mumkin. Oxirgi ikki birlik birinchi FB – *qadam qo'ymoqqa* variantlar hisoblanadi. Ularning barchasi bitta ma'noga ega bo'lib, bir stilistik vazifani bajaradi.

Rus tilida analogik FB'lar mavjud. Binobarin, mazkur misolda FB'lar uchala tilda bir-biriga mos keladi.

II. Bir xil ma'noga ega va birgina stilistik vazifani bajaruvchi, ammo leksik tarkib bo'yicha farq qiluvchi ekvivalentlar mavjud.

1. Turli otlar: *parler dans le dos – orqasidan gapirmoq. Fe'llar: parler – gapirmoq* (говорить, разговаривать) bir xil . Otlar: fransuz tilida – *le dos* (спина), o'zbek tiliga – orqa (*orqa ma'nosidagi ket*). *Fransuz va rus tillarida FB'lar bir xil. Kontekstdan kelib chiqqan holda, bu oborotni o'zbek tiliga orqasidan biron narsa*

demoq (osujdat za spinoy), orqasidan muhokama qilmoq (обсуждать за спиной) deb tarjima qilish mumkin.

Et même, sur le fond là nom plus on n'a pas parlé dans ton dos, mais toi aussi, quoi? Si on voulait te critiquer, peut-être que tu continues trop à tout voir, à travers le port et le chateau d'eau sans t'occuper assez, du reste de la section, maintenant que l'en es secrétaire.

Да и вообще... мы это не обсуждали у тебя за спиной, но все-таки и тебя можно покритиковать! Ты вот стал секретарем районного комитета, твой поселок, остальными же ячейками комитета недостаточно занимаешься.

Umuman aytganda ...biz bu masalani orqangdan muhokama qilmoqchi emasmiz, lekin seni ham tanqid qilish mumkin. Sen hozir seksiyamizga sekretarsan, lekin butun fikru xayoling port ishlari va posyolka masalasi bilangina band, seksiyaning boshqa yacheykalari bilan tuzukroq shug'ullanmaysan...

Ko'rib turganimizdek, *parler dans le dos* FB rus tiliga *обсуждать за спиной* va o'zbek tiliga *orqasidan gapirmoq* deb tarjima qilingan. Natijada fransuz tilining FB adekvat qayta tiklangan.

2. Turli fe'llar: *prendre le deuil – motam tutmoq, dormir sur le côté gauche – dormir sur le côté droit – chap yonbosh bilan turmoq, o'ng yonbosh bilan turmoq.*

Ikki so'nggi frazeologizm har birining turiga bo'lgan odatlarini ifoda etadi. Ulardagi otlar mutlaqo bir xil, fransuzcha – *le côté*, o'zbekcha – *yonbosh*. Fe'llar mutlaqo antonimik: fransuzcha – *dormir* (uxlamoq), o'zbekcha – *turmoq* (вставить). Fe'llar antonimik bo'lganiga qaramay, ular ekvivalentdir. Ruscha ekvivalentda na birinchi, na ikkinchi tarkib bir-biriga mos keladi: *вставить с правой или с левой ночи*.

Fransuzchada – *le côté* (bok), ruschada – *нога*, fransuzchada – *dormir* (uxlamoq), ruschada *вставить* (turmoq) fe'llari. Fransuz va o'zbek tillarida barcha tarkiblar mos kelishi, fransuz va rus tillarida ular turlicha bo'lgan bunday holatlar ancha kam uchraydi.

Mazkur FBlarning qo‘llanilishini O.de Balzakning “Yevgeniya Grande” romanidan keltirilgan quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin:

– Eugénie, cria la bonne mère, je ne sais sur quel côté ton père a dormis, mais il est bon homme ce matin. (*Balzac. Eugénie Grandet, p. 226-227*).

– Евгения! – добродушно крикнула мать. – Не знаю, с какой ноги встал отец, но сегодня он прямо добряк. (*Бальзак. Евгения Гранде, стр. 135*).

– Yevgeniya! – deb qichqirdi onasi mehribonlik bilan. – Bilmayman, dadang bugun qaysi yonboshi bilan turgan ekan, lekin judayam xushfe‘l bo‘lib ketibdi. (*Balzac. Yevgeniya Grande, 153-bet*).

III. Bir xil ma‘noga ega va bir xil vazifani bajaruvchi, ammo turli leksik tarkibda keluvchi ekvivalentlar.

1. Uchinchi tarkibning ma‘nolariga o‘xshash turli otlar va fe‘llar: *mettre fin au jeu* – o‘yinga xotima bermoq, *il n’y a un chien dehors* – dalada zog‘ uchmaydi. Birinchi misolda *mettre* (qo‘ymoq) va o‘zbekchada *bermoq* fe‘llaridir; *fin* (tamom) va o‘zbekchada – xotima (отказ) – ot. Uchinchi tarkib *jeu* – o‘yinga to‘g‘ri keladi, ikkinchi misolda fransuz tilida shaxssiz fe‘l *il y a* inkor shaklda, o‘zbek tilidagi *uchmoq* so‘zi ham inkor shaklda. Ikkinchi tarkiblar fransuzchadagi *chien* (ит), o‘zbekchadagi *zog‘* (ворона) otlardir. Uchinchi tarkib bir-biriga mos keladi: fransuzchada *dehors*, o‘zbekchada – *dalada*.

Birinchi FBda ramziylik u qadar chiqmagan. Ikkinchisida – *il n’y a un chien dehors* va *dalada zog‘ uchmaydi* u ancha yorqin ifoda etilgan. Ayni damda ramzlar mutlaqo xilma-xildir; agar fransuzchada FB asosida *chien* – it bo‘lsa, o‘zbekchada – *zog‘*. Rus tilida mazkur tushunchani ifoda etish uchun *ни душу* FB qo‘llaniladi.

Badiiy tarjima sharofati bilan tilda paydo bo‘ladigan yangi so‘zlar va iboralar, agar ular xalqning milliy madaniyatiga va dunyoqarashiga mos kelsa, tilni boyitadi, bunda tarjima tilining grammatik va fonetik meyorlari buzilmasligi kerak¹.

¹ К.Мусаев. Стилистические вопросы художественного перевода с английского на узбекский язык. Афтореф. Дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент: 1967, стр. 21.

Kalka yordamida qilingan tarjima ba'zan asliyatning rasmiyligini ta'minlaydi. Agar tarkibida fransuz milliy voqeligini aks ettiruvchi tarkiblar bo'lmasa, iboralar vaqti kelib, o'zbek xalqining boyligiga aylanishi mumkin.

Keltirilgan misollar shuni anglatadiki, o'zbek tiliga kalkalash yo'li bilan tarjima qilingan ko'plab FBlar yuqoridagi boshqa talablarga javob beradi. Bu kalkalash yo'li bilan fransuz yoki rus tilidan kirib kelgan frazeologizmlar vaqti kelib o'zbek tilining lug'at tarkibiga kirishi mumkin degani.

Tarjimani yoyib tasvirlash usulida stilistik ma'nodoshlardan mahrum bo'lish muqarrardir. Agar bu asliyat ma'nosiga putur yetkazmasa, undan bemalol foydalansa bo'laveradi.

– Pas grand chose pour commencer. Motus! Je veux jouer ce jeu-là sans qu'on en sache rien. Vous me concluriez un marché pour la fin du mois; mais n'en dites rien aux Cruchot, ça les taquinerait. Puisque vous allez à Paris nous y verrons en même temps pour mon pauvre neveu, de quelle couleur sont les atouts.

(Balzac. *Eugénie Grandet*, p.168).

Не бог весть что для начала. Только молчок! Мне хочется разыграть эту музыку так, чтобы никто ничего не знал. Вы бы заключили для меня сделку к концу месяца. Но ничего не говорите Крюшо, чтоб их не дразнить. Раз вы едете в Париж, тогда посмотрите заодно и для бедного моего племянника, каковы его козыри. (Бальзак. *Евгения Гранде*, стр. 97).

Yo'q, avvalga oz-moz olmoqchiman. Faqat hech kimga og'iz ochmaysiz! Men bu nag'mani shunday chalayki, hech kim bilmay qolsin. Oyning oxirida menga shu ishni to'g'rilab bersangiz. Lekin Kryusholarning jig'iga tegmaslik uchun, hozir ularga hech narsa gapirmang. Parijga ketayotgan ekansiz bir yo'la boyaqish jiyanim uchun ham uning ishlaridan xabar olib kelasiz.

(Balzac. *Yevgeniya Grande*, 114-бем).

Fransuz va rus tillarida *de quelle couleur sont les atouts* – каковы его козыри gapi “uning imkoniyatlari qanaqangi edi” ma'nosida ramziy qo'llangan.

O'zbek tilida zot (kozyрь) so'zi bor, ammo shunga o'xshagan FB yo'q. O'zbek tilida *каковы его козыри* (uning qanaqa zoti bor) deb aytish mumkin,

ammo bu soʻzlar birikmasi ramziy emas va u FB hisoblanmaydi. Shu bois oʻzbek tarjimoni bunday birikmani yoyma tasviriy uslub bilan tarjima qilgan: *uning ishlaridan xabar olib kelasiz.*

Asliyat mazmuni ifoda etilgan, ammo ekspressiya boy berilgan. Bunga yoʻl qoʻyish mumkin, chunki shunday qilmasa, maʼno chiqmaydi. Ekspressiya ham bu oʻrinda xolisona, hazilnamodir. Uni boy berish mazmunga taʼsir qilmaydi.

2.2. Frazeologik birliklar tarjimasini

Frazeologik birlik (FB)lar tilshunoslikda frazeologizm, frazeologik yoki turgʻun ibora, frazeologik birikma va ibora kabi bir nechta nomlar bilan ataladi.¹

Ilgari tilshunoslikda frazeologiya qatlami leksikologiyani kichik bir boʻlimi sanalib kelinardi. Keyingi yillarda uning ustida olib borilgan koʻplab ilmiy izlanishlar va ulardagi turli yangilik jihatlari frazeologiya tilshunoslikning katta bir qismi deb qaralishiga olib keldi. Chunki uning tilda miqdori jihatidan ham, maʼnodorligi jihatidan ham juda keng ekanligi eʼtiborga molikdir.²

Har bir tilda erkin muloqotda boʻlish va shu tilda ishlatiladigan hamma nozik maʼnolarni tushunish uchun shu tilning frazeologik lugʻati bilan yaqindan tanish boʻlish kerak. Biror bir tilning yoki oʻsha tilda gaplashuvchi xalqning til boyligi – uning boʻyoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham oʻlchanadi.³

Keyingi oʻn yillar ichida tilshunoslikda frazeologiya sohasini oʻrganish boʻyicha koʻplab olimlar va tilshunoslar tomonidan chuqur izlanishlar olib borildi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasi oʻlaroq frazeologiya sohasi tilshunoslikning alohida bir sohasini tashkil qiladigan boʻldi. Ammo koʻplab izlanishlar va oʻrganishlar olimlarning ilmiy asoslari va tortishuvlariga qaramay, frazeologiya sohasi toʻla-tukis oʻrganilgan soha deb hisoblanmaydi.

¹ Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. Фил.ф.док...дис.: 10.02.02. Ўзб.ФА Тилшунослик институти, Т., 1991, Б. 270.

² Бадалов Ф.А. Фразеологик бирликларнинг семантик хусусиятларини ўрганишдаги баъзи-бир мулоҳазалар. Халқаро симпозиум материаллари. Термиз. 2004. Б. 44.

³ М.Содиқова. Русча-ўзбекча фразеологик луғат. Тошкент: 1993, Б. 4.

Demak, frazeologik birliklar tilda muhim o‘rin egallaydi, til qurilishining lug‘at sathini esa leksik va frazeologik qatlamlar tashkil etadi. Lug‘at sathidagi frazeologik qatlam ham, uni o‘rganuvchi soha ham frazeologiya deb yuritiladi. Mazkur soha juda murakkab lingvistik jarayondir. Chunki frazeologik birliklarning paydo bo‘lishidan tortib hozirgi kunimizdagi bo‘lgan davrda ushbu birliklarning rivojlanishi, o‘zgarishlar va ular ustida olib borilgan mashxur tilshunoslarning ilmiy ishlari va izlanishlarini kuzatish yangiliklardan xabardor bo‘lish bizning bilim doiramizni kengaytirishga, frazeologiya haqida batafsilroq fikrlashga o‘rgatadi. Hozirgi kunimizga kelib frazeologiya sohasi keng qamrovda tushunilmoqda, ya’ni frazeologiya qatlamiga nafaqat frazeologik turg‘un birliklar, balki, maqol va matallar, naql va latifalar ham kiradi. Ushbu birliklarda xalqning hayotiy muammolari, mehnat-mashaqqatlari, g‘am-anduhlari, rohat-farog‘atlari, muvaffaqiyat-majburiyatlari, rasm-rusumlari kabilar ifodalanadi. frazeologik birliklarning tarkibi (yoki turlari) to‘g‘risida tilshunos A.I.Yefimov quyidagicha fikr bildiradi: “Frazeologik vositalarga nafaqat idiomalar, balki, matallar, maqollar, yozuvchilar aforizmlari, she’rlardagi qanotli satrlar, ilmiy-texnik xarakterlardagi formulalar va oborotlar, ba’zi ishlab chiqarish-texnik iboralarning kanselyariya shtamplari va shu kabilar kiradi”.¹

Frazeologiyani yana bir asosiy tomoni, bu frazeologik birikmalarning bir tildan ikkinchi tilga so‘zma-so‘z tarjima qilinmasligidir, chunki frazeologizmlarning ma’nosi birikma orasida ishtirok etuvchi so‘zlarning birlamchi ma’nosiga bog‘liq emas.² Shuning uchun ham tilshunoslikda fransuz tili frazeologizmlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasi murakkab masalalardan sanaladi. Masalan, biror asar mazmunini boyitishda, personajlar nutqining obrazli va individual bo‘lishini ta’minlashda frazeologizmlardan foydalaniladi. Ularni o‘zbek tiliga o‘girish ancha mashaqqat talab qiladi.

¹ Ефимов А.И. Об изучении языка художественных произведений. М.: 1952, С. 63.

² Имянинова Ш.С. Адекват таржимага эришиш тамойиллари. // Бадий таржима тилшунослик, адабиётшунослик ва маданиятлараро aloqalar kontekstida. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Жиззах: ЖДПИ, 2011. Б. 81.

Asliyat FBsi asosida yotuvchi ramzni albatta saqlab qolishga intilish tarjimada tushunarsiz birikmalarga olib kelishi mumkin. Shu bois asliyat FBni tarjima tili uchun xos bo'lgan FBga almashtirish ma'qul, bashartiki, bu tarjimaning milliy xususiyatlarini buzilishiga olib kelmasa.

Ko'pincha tarjimada frazeologizmlarning ma'nosi beriladi. Ammo tarjimada asosiy muammo bir tildagi frazeologizmlarni boshqa tilga o'girishda, tarjima qilinayotgan tilda ham frazeologizmlar orqali tarjima qilish, ya'ni tarjima qilinayotgan tilda muqobil variantlarini topa olish tarjimondan bilim va mahorat talab qiladi. Shunday ekan, frazeologizmlar tilda bir necha yuz yillardan buyon mavjud bo'lib, ko'pgina iboralar og'izdan-og'izga ko'chib, har bir milliy tilning ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralar o'zlarining turg'unlik darajasi, semantik birligi va tuzilishi bilan farqlanadi. Avvalo biz fransuz tilida mavjud bo'lgan frazeologik iboralarni, ularning xarakterli xususiyatlarini chuqur o'rgangan shveytsariyalik tilshunos Sharl Ballining fikriga to'xtalib o'tamiz. U hamma so'z birikmalarini ularning o'zaro qo'shilish darajasiga ko'ra ikki katta guruhga, ya'ni erkin so'z guruhlari va turg'un so'z guruhlari ajratadi.

Asliyat matnida yozuvchilar o'z asarlarini jonli, haqqoniy va qiziqarli tarzda ifoda etishda frazeologik birliklardan juda sermahsul foydalanishadi. Shu o'rinda, biz buyuk fransuz yozuvchisi O.de Balzakning "Yevgeniya Grande" romanida qo'llanilgan frazeologik birliklarni tarjimada berilishi xususida fikr yuritamiz.

– Voilà madame qui se remue; elle va faire son sabbat: faut que j'y aille. Vous veillerez au lait, Christophe, rapport au chat. (*Balzac, p. 48*).

– Никаких хозяйка завозилась, поднимет сейчас гам, надо идти. Кристоф, постереги-ка молоко от кошки. (*Бальзак, стр. 262*)

¹ Имянинова Ш.С. Адекват таржимага эришиш тамойиллари. // Бадий таржима тилшунослик, адабиётшунослик ва маданиятлараро алоқалар контекстида. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Жиззах: ЖДПИ, 2011. Б. 81.

– Beka uyg‘ondi shekilli? Hozir uyni boshiga ko‘taradi, men boray. Kristof qarab tur sutga mushuk tegib ketmasin. (*Bальзак, стр.41*)

Mazkur misolda *faire fe‘li son sabbat* so‘zi bilan qo‘shilib FB hosil qilyapti. Bu birikmaning *Shovqin-suron solmoq, g‘alayon ko‘tarmoq* degan ma‘nolari ham bor, lekin aynan *uyni boshiga ko‘tarmoq* deb tarjima qilinishi turg‘unlikni ta‘minlab bergan.

– Le pauvre homme! se dit Eugène en se couchant; il y a de quoi toucher des cœurs de marbre. Sa fille n’a pas plus pensé à lui qu’au Grand Turc. (*Balzac, p. 139*)

– «Бедняга! – думал Эжен, укладываясь спать. – Все это способно тронуть каменное сердце. Дочь столько же помышляла о нем, сколько о турецком султани». (*Бальзак, стр. 121*)

– «Bechora! – deb o‘ylar Ejen, uyquga yotar ekan. – Buni ko‘rib, tosh yuraklar ham erib ketsa kerak. Qizi turk sultoni haqida o‘ylagan bo‘lsa, o‘ylagandirki, ammo otasini olgani ham yo‘q». (*Balzac, 137-138-betlar*)

Ushbu gapdagi *les cœurs de marbre* komponenti *tosh yurak* – bemehr, qahri qattiq ma‘nosida kelmoqda.

... En ce moment donc, M. d’Ajuda-Pinto était sur les épines, et voulait sortir, en se disant que madame de Beauséant apprendrait cette nouvelle, il lui écrirait, il serait plus commode de traiter ce galant assassinat par correspondance que de vive voix... (*Balzac, p. 75-76*)

... В момент прибытия Эжена маркиз д’Ажуда-Пинто сидел как на иголках и собирался уходить, решив, что г-жа де Босеан так или иначе узнает эту новость, а лучше всего он ей напишет: нанести любви смертельный удар гораздо удобнее в письме, чем и личном разговоре... (*Бальзак, стр. 62*)

... Ejen kelganda, markiz d’Ajuda-Pinto xuddi oyog‘i kuygan tovuqday pitirlab turgan va de Bosean xonim bu yangilikni hozir eshitmay qo‘ya qolsin, yaxshisi, unga bu to‘g‘rida yozib yuborarman deb o‘ylab, ketishga shaylanayotgan edi: bunday og‘ir zarbani og‘zaki suhbat vaqtida aytgandan, maktub orqali ma‘lum qilgan osonroq... (*Balzac, 69-bet*)

Maqol va matallar tarjimasi. Ma'lumki, insoniyat asrlar davomida boy ma'naviy xazina yaratib va uni kelajak avlodlarga madaniy meros qilib qoldirib kelgan. Maqol va matallar ham ana shunday bebaho xazinalardandir. Xalq yaratgan bunday durdonalar yillar osha asralib, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan va sayqallangan.

Maqollar kundalik-turmushda kishilarning o'zaro munosabatlarida yaratiladi va davr o'tishi bilan xalq xazinasiga aylanadi. U hayotning barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Maqollarda mehnat, vatanga mehr-muhabbat, mardlik, sevgi, vafo, do'stlik tuyg'ulari ulug'lanib, ishyoqmaslik, yolg'onchilik, xoinlik, qo'rqqoqlik kabi illatlar qoralanadi, yomonlikka, yozuvlikka nisbatan nafrat uyg'otiladi.

Maqollar ham, matallar ham o'ziga xos xalq ijodida yuzaga keladi. Ibratli so'zlar maqol darajasiga ko'tarilishi uchun, hayot qozonida qaynab, maromiga yetishi, umumxalq tomonidan tan olinishi va quyma holda qo'llaniladigan hikmatga aylanmog'i kerak¹.

Maqollar xalq og'zagi ijodida alohida o'rin tutadi. U boshqa aforistik janrlardan farq qiladi. Mashhur rus lug'atshunosi V.I.Dal maqol va matallarni bir-biridan farqlagan holda "Matal – gul, maqol esa uning mevasidir", degan edi.²

Maqollarga matallar juda yaqin turadi. Shuning uchun ham ular doim birgalikda qayd etiladi.

Maqol obrazli ifodalangan, odatda fonetik retimintonatsiyaga asoslangan tugal fikrni anglatuvchi pand-nasihatdir³. Matal maqoldan shunisi bilan farq qiladiki, unda sintaktik jihatdan tugallangan fikr bo'lmaydi⁴. Maqol tushunarli va ravon bo'lib, unda aniq voqea va hodisalar bayon qilinadi. Shu boisdan ular yodda saqlanadi, avlodlardan avlodlarga o'tib, qo'llanishi an'ana tusini oladi. Maqollar zamirida haqiqatni tasdiqlash yotadi. Maqollar tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lib, odatda suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Maqolda fikr qisqa va lo'nda ifodalanadi.

¹ Н.К.Мирхайдаров, С.С.Мусаев, Т.Аликулов. французча мақолларнинг ўзбекча-русча муқобиллари. Тошкент: "Ўқитувчи", 1994. Б.4.

² В.И.Даль. Толковый словарь живого великорусского языка, т. Третий, М.: 1955. С.155.

³ А.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. М.: 1966. С. 341.

⁴ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. М.: 1976, С. 289.

Unda tahlil va tavsiflarga o‘rin qolmaydi. Maqol uchun fikrning mantiqiy izchilligi ayniqsa xosdir. Ko‘pincha maqollar badiiy jihatdan kamolot darajasida bo‘lib, fikr, g‘oyani qiyoslash, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish bilan o‘git, pand-nasihat tarzida bayon qilinadi.

Maqollar odatda to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nolarda ishlatiladi. Bu xususiyat ularning tematik rang-barangligi, qo‘llanish miqyosi va foydalanish yo‘sinlarini yanada kengaytiradi.

Maqol va matallar xalq ommasining jonli nutqida yuzaga keladi va yashaydi, xalq donishmandligining ifodasi hisoblanadi. Xalq hikmatlari kabi ular adabiy tilning og‘zaki-suhbatlashuv turini namoyon qiladi.

Maqol va matallar – oz yoki ko‘p darajada doimiy leksik-grammatik shaklda va muayyan ma‘no bilan qayta gavdalantirilgan barqaror nutqdir¹. Maqol va matallar shu qadar ko‘p va xilma-xilki, ularni tasniflash imkoni yo‘q.

O‘zbek tilida ko‘pgina maqol va matallar o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik odatlarini aks ettiradi.

Mehmon otangdan ulug‘ (Гость важнее отца), *Mehmonning oldida mushugingni «pisht» dema* (Возле гостя не прогоняй даже своего кота), *Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan* (В гости приходят добровольно, уходят с разрешения хозяина) va boshqalar.

Xalq hikmatlari xalq voqeligi, axloqiy tajribasini qisqa, lo‘nda shaklda aks ettiradi, to‘g‘rirog‘i, umumlashtirib beradi. Shu boisdan ham maqol va matallar “bu donolik, zukkolik va ilhomning vaqt sinovidan o‘tgan va avlodlar ma‘qul topgan qorishmasidir”².

V.I.Dal aytadiki, maqol matalga qismning butunga mansubligiga o‘xshaydi: “Maqol – bu matalning bir pallasidir”³. B.I.Dalning bu fikrini davom ettirib, I.L.Lyatskiy yozadi: “Qisqa nutq sifatida maqolning alohida xususiyati uning

¹ Г.П.Шекуров. Некоторые вопросы перевода с русского языка на французский, Афтореферат канд. дисс., Л.: 1956, стр. 15.

² А. И. Ефимов. Из наблюдений над фразеологией Салтыкова-Щедрина, Ученые записки ГПИ, вып. 9, Молотов, 1945, стр. 95.

³ В.И.Даль. Пословицы русского языка, Спб, 1906, стр. 306.

rasman qo‘shhadligidir (двучленность), matal ma‘nosiga ko‘ra har doim bir hadli (одночленна)dir”¹.

Professor M.L.Ribnikov ham maqolni jumлага, matalni esa uning bir bo‘lagiga mansubligini ko‘rsatadi: “Maqol – nutq, gapda ifodalangan tugal fikr. Matal – mulohaza yuritishning shaklan ramzli, ifodali unsuridir”².

Boshqa olimlar maqol va matallarning asosiy farqini ular ma‘nosining ko‘chadigan va ko‘chmaydiganida ko‘radilar. Masalan, O.Shirokova yozadi: “Maqolda bor bo‘lgan va matalda bo‘lmagan ko‘chma ma‘no maqolning mataldan asosiy farqi hisoblanadi”³.

Maqol va matalga birinchi bo‘lib ilmiy asos bergan I.M.Snegirev ham uni farqlash zarurligini hamda ramziy va noramziy ma‘noni unga asos qilib olganini ko‘rsatib o‘tadi.⁴

Grammatik shakl nuqtai nazaridan maqol va matallarni farqlash imkoniyatini hisobga olib, V.I.Dal ularni farqlashga mantiqiy va semantik tamoyilni asos qilib qo‘ydi: maqol – bu asotir, matal esa “ifoda usuli, ammo asotirsiz” deb hisoblagan edi.⁵

S.G.Gavrin fikricha, na grammatik shakl mezonini, na ko‘chma ma‘no mezonini maqol va matallarni farqlashga asos qilib bo‘lmaydi. Ular o‘rtasidagi asosiy farqni odamlar o‘rtasida munosabat o‘rnatish va fikr almashish amaliyotida ular bajaradigan vazifani anglaydi. “Muomala qilish va fikr almashish amaliyotida maqol va matallar bir xil rol o‘ynamaydi: matallar (so‘z birikmasi shaklida ham, gap shaklida ham) faqat predmet yoki voqelikni tilga oladi, ramziy ifodaviy shaklda qandaydir voqea, ishni ta‘kidlaydi, qandaydir muayyan masalani, harakatga undashni, istakni ifoda etadi, maqollar esa muayyanlik va yagonalikdan

¹ Е.А.Ляцкий. Несколько замечаний по вопросу о пословицах и поговорках, «Известия отделения русского языка императорском Академии Наук», т. 2, кн. 3, 1897, стр. 756.

² М.А.Рыбникова. Русская поговорка, «Русским язык и школе», 1939, № 4, стр. 47.

³ О.Широкова. Жизнь пословицы, «Русским язык в школе», 1931, № 6-7, стр. 117.

⁴ Қаранг: И.М.Снегирев. Русские в своих пословицах, М., 1931-1934, кн. 1-4, стр. 139.

⁵ В.И.Даль. Пословицы русского народа, Спб, 1906, стр. 36.

umumiylikka, tasodifiylikdan zarurlikka ko‘tarilmaydi, ular doimiylik va odatiylikning zaruriy aloqasini ifoda etish darajasigacha ko‘tariladi”¹.

Fransuz olimi J.Pino maqol va matalning farqiga ramziylikni asos qilib oladi: “Maqol – bu puxta yetilgan jumla bo‘lib, odatda ramzli bo‘ladi, unda xalq donishmandligi hayotiy tajribani ifoda etadi”². Ramziylikdan tashqari ularni yana mavhumlik farqlab turadi, maqolga nisbatan matallar ko‘proq mavhumlikka moyil bo‘ladi³.

Fransuz va rus maqol va matallarida ramziylik haqiqatdan ham muhim o‘ziga xos xususiyatlardan biridir. Bu o‘zbek maqol va matallarida ham kuzatiladi. Biroq M.Hakimov ko‘rsatib o‘tishicha, o‘zbek tilida bu mezon barqaror bo‘lmaydi⁴. Misol uchun M.Hakimov bunday materialni keltiradi: *Tikilgan qozon qaynamas, Shakarning ozi shirin* va boshqalar.

Ana endi maqol va matallar tarjimasiga keladigan bo‘lsak, shu amaliyot sohasining eng mashaqqatli, shu bilan birga sharaflı ijodiy hodisalaridandir.

Ularnı tarjima qilishda har bir tarjimon o‘zicha yo‘l tutadi. Bu sharaflı ijodiy qiyinchiliklarnı faqat o‘zi yengib o‘tmog‘i va muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Bunda unga turli lug‘atlarnı bilishdan tashqari kuchli intuitsiya yordamga keladi.

Maqollar, matallar tarjimasida tarjima tilidan mos ekvivalent topish yoki buning iloji bo‘lmaganda, o‘ziga yarashqli lo‘nda, hikmatomuz tabdilda ma’nosini chiqarish maqsad qilib qo‘yiladi⁵. Tarjima qilingan adabiyotlar bu jihatdan juda boy va rang-barang tajribalar borligini ko‘rsatadi.

Maqollar, matallar tarjimalari shu amaliyotning eng huzurbaxsh ijodiy sohalaridan. Ular tarjiması ifodalarida tarjimonning layoqati, iste’dodi so‘zni, obrazlilikni yuksak darajada anglash va his qila bilish qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Ko‘plab maqol va matallar, shuningdek qofiyali va vaznli qochirimlar va matallar, ayniqsa, folklordan chiqib kelganlarini ifoda etish yo‘li – bu tarjimon

¹ С.Г.Гаврин. К вопросу об отличии пословицы от поговорки в современном русском литературном языке, Ученые записки Пермского пед. ин-та, вып. 17, 1958, стр. 35.

² Jacques Pinlaux. Proverbes et dictons français. Paris, 1956, p. 38.

³ Ўша жойда.

⁴ Бу ҳақда қаранг: М.Ҳақимов. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир, Сб. «Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар ва материаллар», Тошкент, 1965.

⁵ И.Ғафуров. Таржимонлик мутахассислигига кириш. Тошкент: “Меҳриёна” нашриёти, 2008, Б. 41.

tomonidan tarjima tilida yangi frazeologik birlikni ijodiy yaratish yoʻlidir. Bu uning ruhi, xususiyati va xalq anʼanasiga muvofiqʻi boʻlmagan FBlarning bu guruhini tarjima qilish usullari ularning rasmiyligiga, shuningdek FB tarkibiga kiruvchi, ular FB tarkibida bildirgan maʼnolari bilan birga xususiy maʼnoga ega soʻzlarga tayanadi.

Yuqorida biz tarjima jarayonida yangi FBlar paydo boʻlishiga ishora qilgan edik. Paremeologik birlik (keyingi oʻrinlarda – PB)larda ham shu holni koʻramiz. PBni soʻzma-soʻz tarjima qilganda, soʻzlar tarkibini saqlab qolganda ham shunga erishiladi. Bunday tarjima chogʻida PBga kiruvchi har bir soʻzning maʼnosi va soʻnggi vaqtda matalning umumiy maʼnosi, uning frazeologik butunligi xarakteri, maqolga xos hikmati qolaveradi.

Asliyat tilidan toʻla olib oʻtilgan bu yangi oborotdir, butun va alohida unsurlarning lugʻaviy-mantiqiy maʼnosi ham oʻzida. U koʻpincha ramzli ifoda sifatida qabul qilinadi, kitobiylik, sunʼiylik yoki begonalik taassurotini paydo qilmaydi. Sababi shundaki, uning kinoyali maʼnosi (koʻpincha pand-nasihati) aniq, PBning oʻzi esa oʻz kinoyasi bilan tilda oldindan mavjud proverbial matallarni eslatadi. Bu shu yoʻl bilan qayta tugʻilgan maqol tilda yashashi mumkinligi uchun sharoit tugʻdiradi, koʻplab fransuz PBlarning fransuz tili rivoji xususiyatlari bilan bogʻliq sintaktik tuzilishi, ehtimol, shunga imkon beradi. Fransuz PBlarini oʻzbek tiliga tarjima qilishning birinchi usuli shunday.

Har bir xalqning maqol va matallardan foydalanadigan oʻz kasblari boʻladi. Rus maqollarida koʻpincha etikdoʻzga (*Ругается как сапожник*), izvoshchiga (*Ругается как извозчик*), tikuvchiga (*Портной сгадит — уют сгадит*) tayanadi: fransuz maqol va matallarida – *mentir comme un arracheur de dents*, *mentir comme un laguais*, oʻzbek tilida – *chumchiq soʻysa ham qassob soʻysin*, (*даже воробья пусть мясник режет*), *boʻzchi belboqqa yolchimas* (*ткач без кушака*), *mullo bilganini oʻqiydi, boʻzchi bilganini toʻqiydi* (*Мулла читает то, что он знает, ткач тклет то, что он умеет*), *Otang temirchimi?* yoki *Otang temirchi oʻtganmi* (*букв, твой отец был кузнецом что-ли?*)...

Shunday maqol va matallar uchraydiki, ularda gap turli mutaxassisliklar haqida boradi, ammo ma'nosi bitta. Ular negizida turli ramzlar yotganiga qaramay, bundan PBlar ekvivalentlar hisoblanadi. Rus etikdo'zi va o'zbek bo'zchisi faoliyat jihatdan bir-biriga o'xshash.

Maqol va matallarni tarjima qilish chog'ida ekvivalentlar va analoglar topilmay qolishi natijasida tarjimon so'zma-so'z tarjimani qo'llashga to'g'ri keladi. Ammo so'zma-so'z tarjima qilar ekan, tarjimon asliyat "mutaxassisligi"ni o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lgani bilan almashtirishi lozim, chunki asliyat maqol va matallar asosida yotgan mutaxassislik o'zbek tilida bo'lmasligi yoki mazkur ramz o'zbek turmushi uchun xos bo'lmasligi mumkin.

Balzakning «Yevgeniya Grande» romani tarjimonlari *Le charbonnier est maître chez lui* matalini tarjima qilishda "ko'mirchi"ni tarjimada o'zgartirmaganlar.

— De quoi se mêle-t-on. Charbonnier est maître chez lui

(Balzac. *Eugénie Grandet*, 252).

— Чего они суются? И угольщик у себя хозяин!

(Бальзак. *Евгения Гранде*, стр. 146).

— Nimaga tumshuqlarini tiqishadi? Ko'mirchi ham o'z uyida xo'jayinlik qila oladi. (Balzac. *Yevgeniya Grande*, 170-bet).

Ko'rib turibmizki, fransuz maqoli qahramoni charbonnier har ikkala tilda ham o'zgarmagan. Garchi ruschada: *Всяк в своем доме хозяин*ning ruscha tarjimasida uni o'zgartirish mumkin bo'lsa-da, o'zbek tilida maqol qahramonini *gadoy* deb o'zgartirishi ma'qul bo'lardi. *Ko'mirchiga* qaraganda *gadoy* o'zbek kitobxoniga tushunarliroq: *gado ham o'z uyida xo'jayin*.

Fransuz tilidan yoki boshqa har qanday tildan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida qanday voqea ro'y berishi mumkin? Biroq bordi-yu, o'zbek tilining til xazirasi so'zma-so'z tarjimaga imkon bermasa, tarjima qilingan hikmatlarga hech

bo‘limganda paremeologik birliklarning o‘zbek tilidagi mavjud shaklini berish mumkin¹.

Tarjima jarayonida maqol va matallarni tarjima qilmasdan, qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘chirib qo‘yish ham mumkin. Ekvivalent yoki analog bo‘limganda bo‘nday usul to‘g‘ri keladi – bashartiki, yo tillar bir-biriga o‘xshagan yoki mamlakatlarning geografik joylashuvi bir-biriga yaqin bo‘lsa.

Qo‘shimcha ta’sirchanlikka erishmoq maqsadida bunday ko‘chirib olish kitobxon asliyat tilini bilib qolganda qo‘l keladi.

Tarjimaning ekvivalentli usulida asliyat tili qanchalik aniq berilmasin, maqol va matal rus va o‘zbek tillariga qanchalik to‘liq o‘tmasin, biz baribir uning kinoyaligini, ramziyligini his etamiz.

Ko‘pincha yozuvchi maqol va matallarni qayta ishlab chiqadi, o‘zi ijod qilayotgan badiiy kontekstga moslashtiradi. Bunday hollarda proverbial hikmat so‘zma-so‘z ko‘chirib olinmaydi, kitobxon muallif qo‘ygan boshqa leksik tarkiblar asosida uni qayta tiklaydi.

Agar tarjimon buning parafraza qilingan maqol yoki matal ekanligini tushungan bo‘lsa, u uning butun mazmunini berishi mumkin edi, chunki bu yerda maqolning lo‘ndaligini, jarangdorligini saqlab qolish shart emas edi.

Biz maqol va matallar tarjimasining turli usullari xususida to‘xtaldik. Uchala tarjima tahlili natijasida shuni bildikki, rus tarjimoni asliyatdan tarjima qilganda so‘zma-so‘z tarjimaga murojaat qiladi va natijada tarjima tilida yangi maqol yoki matal paydo bo‘ladi.

Ba’zan maqol va matallar frazeologizmlar tarjimasining sanab o‘tilgan usullari (ekvivalent, analog, adekvat va kalka)dan birortasiga to‘g‘ri kelmaydi. Tarjimon har qancha tajribali bo‘lmasin, tarjimada ular mazmunining tavsifi katta bo‘lib ketadi. Bunday hollarda tarjimon boshqa tildan qilingan tarjima usulini olib kirishi mumkin. Masalan, *L’Habit ne fait pas le moine* maqolini o‘zbek tiliga berish g‘oyat mushkul. So‘zma-so‘z tarjima, shubhasiz, ma’nosizlikka olib keladi.

¹ А.Нарзикулов. К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Ташкент: «Фан», 1974, стр. 80.

Rus tiliga u bunday tarjima qilingan: Ne vsyak tansor, kto plyashet. Ruscha analogda biz maqol negizida yotgan ramzni to‘la his etamiz. Fransuzcha maqol ma’nosini berish uchun ruscha analogni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin: O‘yinga tushgan bilan — o‘yinchi bo‘lmas. Bu og‘ir tarjimani cheklab o‘tish imkonini beradi.

Ayrim fransuzcha maqol va matallarda na qofiya, ohangdoshlik bor, ularni oddiy gaplardan ajratib bo‘lmaydi. Quyidagi maqol va matallar shular jumlasidandir: *L'espérance est la viatique de la vie, celui qui envoie les bouches, envoie aussi les vivres, celui qui avale une brique, en avalerait bien deux* va boshqalar.

O‘zbek va boshqa tillarda bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu turkumdagi maqol va matallar boshqa tillarga nisbatan oson tarjima qilinadi, qofiya va ohang yoki tovushlarning ohangdoshligiga rioya qilingan proverbial hikmatlarga o‘xshagan emas.

Maqol va matallarda milliy o‘ziga xoslikni ifodalash xususida kelsak, bu – g‘oyat og‘ir ish. Aynan milliy o‘ziga xoslik stilistik bo‘yoqlarda katta rol o‘ynaydi. Kitobxon aslyatda yoki tarjimada o‘qishiga bog‘liq ravishda stilistik kolorit turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, fransuzlar eng avvalo maqol va matallarning nutq uslubiga mansubligiga e’tibor qiladi. U qo‘llanayotgan maqol va matalning asarning umumiy fabulasi, muayyan shartlari, obrazdagi tipik qahramonlar bilan uyg‘unligi haqida o‘ylaydi. Milliy kolorit uning e’tiborini tortmaydi. Aksincha, fransuz asari tarjimasida o‘zbek kitobxonini maqollarning nutq uslubiga mansubligidan ko‘ra milliy kolorit ko‘proq jalb qiladi.

Binobarin, bu yerda ikki jarayon o‘zaro hamkorlik qiladi: bir tomondan, kitobxonning ona tiliga odatlanishining ma’lum darajasi, ikkinchi tomondan – ifoda shakli va maqoldagi mulohaza(lar) mazmuniga o‘xshab, g‘ayrioddiylik, yangilik tufayli qilingan tahlil. Albatta, uning ham, buning ham rolini oshirib yubormaslik kerak, biroq idrok etishning bu psixologik xususiyatini tarjimon mensimasligi kerak emas. Bordi-yu, tarjimon badiiy asarning barcha maqol va matallarini ma’no jihatidan o‘xshash va u yoki bu nutq uslubiga mansubligi

bo'yicha tegishli bo'yoq (ma'no) bilan o'zbek tiliga tarjima qilsa, ramziylikka qaramay (zero, ma'noni, ekspressiyani ekvivalentlar ifoda etadi, bunday tarjima ayrim nuqsonlarga ega bo'lur edi: u muallif qo'llagan maqol va matallarning milliy o'ziga xosligini kitobxonga yetkaza olmaydi. Shu bois, maqol va matallarni tarjima qilganda ularning milliy o'ziga xosligi saqlab qolinishi kerak. Buning uchun faqat bitta usul bor – ularning o'zbek tilining alohida, tarjimaning boshqa usuliga to'g'ri kelmaydigan maqol va matallar transliteratsiyasi bilan omuxta bo'lib kelgan vositalari ila ijodiy qayta tiklash. Ko'r-ko'roni kalkalash, albatta, bu vazifani bajarishga yaramaydi. Buning uchun yanada qulayroq usullar kerak.

Shunday qilib, yorqin ifoda etilgan milliy buyoq hisoblanuvchi unsurlarni bartaraf etish uslubi bilan milliy bo'yoqli maqol va matallarni boshqa tilga tarjima qilish mumkin bo'ladi. Ammo bu milliy maqol va matal kontekstlarida qo'llashning ma'lum sharoitlarini hisobga olishni talab etadi.

III BOB. YEVGENIYA GRANDE ROMANIDA MANTIDAGI XOS SO‘ZLARNING TARJIMADA BERILISHI

3.1. Jargon so‘zlar tarjimasi

Bizga ma’lumki, tilshunoslikda biror guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralarga jargonlar deb nom berilgan¹. Tilshunoslikda argo degan atama ham bor. Argo – biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, o‘g‘rilar va b.) o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan leksik elementlardan iborat yasama til². Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqishicha, argo va jargon aynan bir narsa, argoni faqat fransuzlar ishlatadi.

Jargon so‘z va iboralarni nutqning oddiy, xalqona qatlami negizi desa bo‘ladi. Xalqona til har doim jargonizmlar hisobiga boyiydi. Fransuz tilida jargonlardan adabiy tilga o‘tgan frazeologik birliklar (FB) talaygina.

Jargon so‘z va iboralar keng tarqalgani bois ular deyarli har doim xalq tili lug‘atini to‘ldirib turadi³.

Fransuzcha-ruscha frazeologik lug‘atda deyarli har bir sahifada nutqning jargon qatlamidan bir nechta FB beriladi. Biroq til jargonizmlarga har qancha boy bo‘lmasin, uning to‘liq lug‘atini tuzish imkoni yo‘q. Chunki jargon qatlami muttasil yangilanib, o‘zgarib turadi. Har holda fransuz tilida nutqning jargon qatlami so‘z va iboralari shu darajada ko‘pki, bu tilda umumxalq tili so‘zlari va iboralarini qo‘llamay bermalol gaplashish mumkin⁴.

Fransiyada argo qadimdan bor. Fransuz adabiyotida nutqning bu usuli bilan ko‘plab asarlar yozilgan. Fransuz klassik shoiri (XV asrning ikkinchi yarmi) Fransua Viyon o‘z zamoni argosidan foydalanib, o‘ndan ortiq balladalar yozgan. Shunisi maroqliki, boshqa yozuvchilar ham argodan foydalanganlar. Ko‘plab misteriya (sirli, maxfiy diniy aqida)lar argotizmga to‘lib toshgan. XVI asrning

¹ А.Хожиев. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкен: “Ўқитувчи”, 1985, Б. 35.

² Ўша манба. Б. 18.

³ Ш.Балли. Французская стилистика. М.: ИИЛ, 1961, стр. 279-280.

⁴ Қаранг: Г.П.Шекуров. Арготизмы в современном французском языке, Сб. (Вопросы романского языкознания), Кишинев: 1963, Б. 237.

birinchi yarmida Rable va uning izdoshlari xos argo soʻzlari va hatto butun-butun iboralarni bemalol ishlatganlar¹.

Fransuz va rus adabiyotida bu qadimgi anʼana – argoda yozish hozir ham davom etmoqda. XX asrda bu holat yanada avjiga chiqdi. Fransuz adabiyotida Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari davri yozuvchilarining asarlari argotizmlar bilan toʻlib toshdi. Masalan, A.Barbyusning “Olov”, J.Laffitning “Roz-Frans”, “Boychechak tergani qaytib kelamiz”, A.Stilning “Birinchi zarba” va boshqa romanlarda koʻplab jargonizmlar mavjud.

Endi bevosita jargonizmlar tarjimasida toʻxtalsak.

Fransuz tili jargon qatlamini oʻzbek tiliga tarjima qilish muammoli ish. Bu yerda asliyatning stilistik xossasini yoʻqotish bor narsa. Fransuz adabiyotining biz tahlil qilgan toʻrtala asar ichidan jargonizmlar, xalqona gaplar va soʻzlar eng koʻp uchragani Andre Stilning “Birinchi zarba” romanidir.

Shuni taʼkidlash lozimki, jargonizmlarni oʻzbek tiliga oʻgirish deyarli ilmiy adabiyotda qarab chiqilmagan. Shu bois, mazkur qatlamni oʻzbek tiliga agʻdarish haqida gap ketganda, tarjimon katta qiyinchiliklarga duch keladi. Quyidagi misollarni kuzatamiz:

– Quand même vivement la quille! soupire Théo, hors de propos, pent-être expres pour changer de converstion.

– Эх, хорошо бы поскорее распротиться с казармой! – вздохнув, заметил вдруг Тео, желая, очевидно, переменить разговор.

– Shu kazarmadan tezroq qutilsak yaxshi boʻlar edi! – dedi xoʻrsinib Teo.

Avoir la quille frazeologik birikmasi harbiy jargon bilan bogʻliq. Rus tarjimoni butun kontekst mazmunini berib qoʻya qolgan, ammo harbiy jargonga xos maʼnoni qayta ishlab chiqmagan. Ehtimol, rus tarjimoni boshqacha yoʻl tuta olmaganidir ham, chunki rus tilida nutqning harbiy-jargon qatlamidan mos FB yoʻq. Umuman suhbatlashuv yoki nutqning kitobiy qatlamidan olingan FBdan

¹ Oʻsha manba. B. 238.

farqli o'laroq ikki til jargon frazeologizmlari bir-biriga kamdan-kam hollarda mos keladi.

O'zbek tilida jargonizm uchun xos xossalar saqlanib qolmagangina emas, balki rus tarjimoni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan suhbatlashuv ma'nosi ham boy berilgan. O'zbek tilida harbiy jargondan FB umuman yo'q. Bordi-yu, o'zbek tarjimoni yoki kitobxonni harbiy jargonizmlardan xabardor bo'lsa, ular sof rus tilida bo'ladi – ular o'zbek matniga ana shunday shaklda kirib qolgan. O'zbek tarjimoni o'zbekcha tarjimada jargonizmlarning ekspressiv-hissiy ma'nosini saqlab qolishi murakkabligi ana shunda, shu bois bu oborotning loaqal so'zlashuv ma'nosini berishga harakat qilish kerak.

Agar ular harbiy jargonga tegishli bo'lmasa, jargonizmlarning stilistik ma'nosini qayta gavalantirish mumkin bo'ladi.

– Moi, je vais m'en taper un chez Verdi, dit Brassard, ça me rechauffera.

– Зайдем к Верди, пропустим по рюмочке, – предложил Броссар. – Не мешает согреться.

– Verdinikiga kirib, qitday-qitday otsak yomon bo'lmasdi – deb taklif etdi Brassar, – sal, qizishib olardik.

O'zbekcha tarjimalarda bunday hollar kamdan-kam uchraydi, zero, fransuz va rus tillariga qaraganda o'zbek tilida jargon birikmalariga kamroq. Ko'pincha jargonli FB'larni yozuvchi hissiy-ekspressiv ma'noli to'pori-so'zlashuv nutqi bilan qo'llaydi. Bunda o'zining odatdagi, jargonlik ma'nosini saqlab qolgan noadabiy jargon iboralar o'z hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi.

– Il venait d'un simple petit artisan. Mais il avait du trifouiller un coup sur les dommages de guerre, ce qui lui avait; donne les mouans de s'agrandir, on n'a jamais su le fin fond de l'affaire.

До того, как Блан завел свое дело, он был обыкновенным ремесленником. Он каким-то образом разжился, говорят, сумел получить

большой куш в возмещение убытков от военных действий, – подоплека этого дела так и осталась невыясненной.

Ilgari Blan oddiy bir hunarmand ekan. Qanday qilib dunyo orttirganini hech kim bilmaydi; ba'zilar urushdan ko'rgan zarari uchun katta pul olgan, deyishadi, har holda bu narsa sir bo'lib qolaveradi.

triffouiller un coup FBsi to'pori hisoblanadi. U roman qahramonlaridan biri Alsidning nutqida ataylab qo'llangan bo'lib, unga qo'shimcha hissiy-ekspressiv ma'no bag'ishlaydi (qiyoslang: xalq so'zlashuv tilidagi *faire sa pelote* – *нажиться, разбогатеть, накопить состояние* – *boyib ketmoq, dunyo orttirmoq* bilan aynan sinonim).

Rus tarjimoni bu kontekstni qayta gavdalantirishga muvaffaq bo'lgan, holbuki, *triffouiller un coup* va *получить куш* FB o'rtasida stilistik farq yaqqol sezilib turibdi. O'zbek tarjimoni FB tarjimasida *dunyo orttirmoq*ni qo'llagan va bu unga asliyatga yaqinlashish imkonini bergan. O'zbekcha tarjima adekvatlikka da'vo qilolmaydi.

Har bir tilda o'g'rilar jargoni o'z yasalish qoidalari va meyorlariga ega.

Andre Stil o'z qahramonlari nutqida jargonizmlarning bu turidan mohirlik bilan foydalanadi. *Etre baise* FB o'g'rilar jargoniga kiradi. Ammo romanda u doker Kleber nutqida qo'llangan. Kleber o'rtog'i bilan ikkilasiga topshirilgan yozish ishini bajarish uchun minoraga chiqib oladi. Bunday FB bu qahramon tilida kulgili, hazilnamo jaranglashi kerak edi. ushbu oborot *comme les rats* o'xshatishi bilan birikib, nutqni yanada ta'sirchan qilib yuborgan.

Bu xildagi FBni tarjima qilish g'oyat qiyin, hatto o'zbek tiliga emas, rus tiliga ham tarjima qilib bo'lmaydi.

– Mon vieux, dit Kléber, ce ne serait pas le moment qu'il nous file un coup de projecteur, l'autre là-bas. La, on serait baisés comme les rats, sans défense.

Вот будет номер, если они сейчас нащупают нас прожектором, – говорит Клебер. – Тогда нам, пожалуй, не сдобровать, всех перехватывают.

Agar ular bizni projektor nuri bilan tutib olsalar toza rasvo bo‘lamiz-da, dedi Kleber. – Shunday bo‘la qolsa, biz baloga giriftor bo‘lamiz, hammamizni ushlaydilar.

Ruscha va o‘zbekcha tarjimalarda jargonli FBlardan nom-nishon ham qolmagan. Nutqning jargon qatlami FBsi rus tiliga birgina *перехватывают* leksik birlik bilan berilgan. Bu iborani faqat so‘zlashuv ma’nosinigina saqlab qolgan – *пожалуй, не одобровать, всех перехватывают*. Бирок адекват таржима учун бу хол етарли эмас. Бу ерда муаллиф қаҳрамон нутқиға берилдиган барча хоссалар бой берилган ўзбекча таржимада ҳам худди шу нарсани айтиш мумкин.

3.2. Vulgar so‘zlar tarjimasi

Nutqning vulgar so‘zlar qatlami tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, vulgar so‘zlar asosan so‘zlashuv nutqida uchraydi. Bu so‘zlar qo‘pol, haqoratli, beadablik xususiyati bilan xarakterlidir. Unga tilshunoslikning izohli lug‘atlarda shunday ta’rif keltirilgan: “Adabiy til leksikasiga kirmaydigan qo‘pol so‘z va iboralar vulgarizmlar hisoblanadi”¹.

Ilmiy adabiyotlarda nutqning bu qatlami tarjimasi qisman o‘rganilgan. A.Narziqulov ilmiy asarlarida fransuz vulgar va jargonli frazeologik birikmalar tarjimasi xususida fikr yuritgan bo‘lsa, rus tilidan o‘zbek tiliga vulgarizmlar tarjimasi masalasi ustida X.Doniyorov, S.Mirzayev va G‘.Salomovlar o‘z ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tganlar².

Vulgar so‘zlarni badiiy asarlarda qo‘llangan holatlarini uchratish mumkin. Bundan ko‘zlangan maqsad, qahramon xarakterini ochish, ta’sirchanlikni oshirish va tasviriylikni kuchaytirish, voqelikni to‘laqonli, boricha ifodalashdir.

Nutqning mazkur qatlami tarjimasiga kelganda, har bir tarjimon o‘zicha ish tutadi. Ko‘p hollarda tarjimonlar nafaqat FBlarni, umuman vulgarizmlarni adekvat

¹ А.Ҳожиёв. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985, Б. 27.

² А.Назиқулов. К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Ташкент: “Фан”, 1974. Х.Дониёров, С.Мирзаев. Сўз санъати, Тошкент, ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, 1962. Ғ.Саломов. Тил ва таржима. 1966.

qayta yaratishga muvaffaq bo‘lolmaydilar. Vulgarizmlar barcha tillarda mavjud, ammo har bir til o‘zining alohida, maxsus vulgar iboralariga ega.

Yozuvchi vulgarizmlardan o‘z asarlarida jamiyatning muayyan qatlamlari vakillarini tasvirlash uchun foydalanadilar. Vulgarizmlar A.Stilning “Birinch zarba”, O.de Balzakning “Yevgeniya Grande” va “Gorio ota” romanlarida talaygina uchraydi.

Barcha funksional-gaplashuv uslublaridan bironta so‘z yoki ibora nutqning shu qatlamidagi so‘zlar va iboralar uchun xarakterli xususiyat – portlovchi ekspressiyaga ega. Birgina so‘z yoki ibora bizga inson shaxsiyatini, uning turmush tarzini va goho kasbini tushunish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan vulgarizmlar jargon so‘z va iboralaridan ekspressivroqdir¹.

Asliyat asarlaridagi vulgar so‘zlar tarjima matnlarida har doim ham ko‘tarinkilikni – jahl, g‘azab, nafrat, qarg‘ish va shunga o‘xshash emotsional holatlarni ifodalanmasligi mumkin. Chunki, vulgar so‘zlarning vaziyat taqozasi natijasida yoki shunchaki shaxs tarbiyasining meyoriy darajada emasligi sababli shaxs nutqida odatiy holga aylanib qolgan bo‘lishi mumkin. G‘.Salomovning fikricha: “Har bir til uning o‘zigagina xos badiiy tasvir vositalariga ega. Tarjimada bu xususiyatlarni to‘g‘ri berish ba‘zan ayni tarjimaning umumiy badiiy estetik qimmatini belgilashda muhim omillardan biriga aylanadi”². Vulgar tusidagi o‘zbekcha FBlarni fransuz vulgarizmlaridan farqlovchi xususiyat – ularning o‘zgartirilgan shaklda qo‘llanilishidir, ya’ni suhbatda beparda so‘z o‘rniga xolis so‘z qo‘llanadi. Kitobxon o‘zi uchun tegishli xulosalar chiqaradi, holbuki, oborot ekspressiv-emotsional ma’nolardan xolidir.

Goho tarjimonlar ba’zi vulgar oborotlarni adekvat tarjima qilib, frazeologik iboraga tegishli mos ekvivalent topadilar.

– Je ne te parle pas à toi. Tiens ta margoulette ou je te chasse, Qu'est-ce que tu as dans ta casserole que j'entends bouilloter sur le fourneau?

¹ А.Назикулов. К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Ташкент: “Фан”, 1974. С. 28.

² F.Саломов. Таржима ташвишлари. Тошкент: 1983, Б.

(Balzac. *Eugenie Grandet*, p. 242).

Я с тобой не разговариваю, кажется. Заткни рот, или я тебя выгоню!
Что это у тебя – я слышал, кипит в кастрюле на плите?

(Бальзак. *Евгения Гранде*, стр 139).

– Sen bilan gaplashganim yo‘q edi shekilli. Yum og‘ziningni, bo‘lmasa
uydan haydab yuboraman! Plita ustidagi kostryulkada nima qaynayapti?

(Balzac. *Yevgeniya Grande*, 163-bet).

Tenir la margoulette – заткнуть рот – og‘iz yummoq FB ekvivalentlar
hisoblangani tufayli har ikki tildagi tarjima to‘laqonli o‘zini oqlagan.

Modomiki, vulgar so‘zlar haqorat va qarg‘ish so‘zlardan iborat ekan, ular
eng avvalo, nafrat va g‘azabni ifodalaydi.

Mon ange, dit-elle à sa chère amie, vous ne tirerez rien de cet homme-là! il
est ridiculement défiant, c’est un grippe-sou, une bête, un sot, qui ne vous causera
que du désagrément. (Balzac, p. 32)

Ангел мой, от такого человека вам ничем непоживиться! – сказала она
своей подруге. – Он недоверчив до смешного; это дурак, скотина, скряга, и
кроме неприятности, ждать от него нечего. (Бальзак, стр. 23)

Tasaddiq, bu odamdan hech qanday naf ko‘rolmaysiz! – dedi u dugonasiga.
– U har narsaga shubha bilan qaraydigan qip-qizil ahmoq, hayvon, g‘irt baxil odam
ekan, faqat ko‘ngilsizliklardan boshqa hech nima kutib bo‘lmaydi undan. (Balzac,
25-bet)

Ko‘rib turganimizdek, asliyatdagi *grippe-sou* vulgarizmi ahmoqlikning eng
tuban nuqtasini, o‘ta nafratni ifodalaydi. Bu komponentni rus tarjimoni *это дурак*
deb qo‘ya qolgan. O‘zbek tarjimoni esa, garchi asarni rus tilidan tarjima qilgan
bo‘lsa-da, *qip-qizil ahmoq* deya o‘girib, asliyatdagi emotsionallikni rus
tarjimonidan ko‘ra tarjima matniga to‘laroq olib o‘tgan. Bundan tashqari, insonga
nisbatan aytilgan *une bête – скотина – hayvon* so‘zi ham kontekstda vulgar
ma’nosini kasb etgan.

Vautrin regarda Rastignac d’un air paternel et méprisant, comme s’il eût dit:
“Marmot! dont je ne ferais qu’une bouchée!”... (Balzac, p. 90)

Вотрен взглянул на Растиньяка отечески пренебрежительно, словно хотел сказать: “Щенок! Да я могу сделать из тебя котлету!”... (Бальзак, стр. 76)

Votren Rastinyakka otalarcha takabburlik bilan qarab qo‘ydi, bu bilan go‘yo: “Itvachcha! Xohlasam, teringni shilib olaman-ku!” demoqchi edi...

(Balzak, 86-bet)

Bu misoldagi *marmot* so‘zining asl ma’nosi – *bola, o‘g‘il bola, bolakay* demakdir. Lekin bu o‘rinda asar qahramoni Вотрен tilidan bu so‘z vulgar sifatida nafratni ifodalamoqda. Rus tarjimoni *marmot* so‘zini *щенок* deya vulgar ma’nosini berib, Balzakning maqsadini to‘g‘ri payqagan va bu bilan o‘zbek tarjimonini ham izidan ergashtirgan. Binobarin, bu tarjima adekvatlikka da’vo qilishga haqli.

Demak, har bir tilda o‘ziga xos emotsional holatni, xarkatni xususiyatlarini ochish va tasviriylilikni kuchaytirishning o‘ziga xos usullari mavjuddir. Fransuz adiblarining asarlari asliyatdan o‘qilganda, unda qo‘llanilgan nafaqat vulgar so‘zlar, umuman so‘zlashuv nutqiga oid bo‘lgan boshqa turdagi so‘zlar ma’nolarini va bunday so‘zlarning qo‘llanilishidan kelib chiqadigan muallif ko‘zlagan mazmun mohiyatini anglay bilish, boshqacha qilib aytganda, asarning parda ortidagi jozibasini payqashga sabab bo‘ladi.

3.3. Realiyalarning tarjimada berilishi

Tarjimashunoslik va lingvomamlakatshunoslik sohalarida asosiy lisoniy leksik birliklardan biri realiyalar hisoblanadi. Tillar orasidagi tafovut odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlar, milliy an’analarining boshqa xalqlar turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ularning nomlari ham boshqa xalqlar tilida tabiiy ravishda yo‘qligi bilan izohlanar ekan, xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlar, shubhasiz, badiiy, tarixiy yodgorliklarning milliy bo‘yog‘ini va ularning o‘ziga xosligini ifodalaydi.

Ma’lum bir millat mentaliteti yohud milliyligini o‘zida aks ettiradigan hamda muayyan davrga xos bo‘lgan moddiy-ma’naviy manbalarni ifoda etuvchi

soʻz yoki soʻz birikmalari realiya deb ataladi.¹ Har bir millatga xos boʻlgan bunday realiyalarning ifodasi badiiy asar tarjimasida toʻlaonli aks etishidagi katta bir toʻsqinlik – bu faqat oʻsha millatga xos boʻlgan koloritni ifodalovchi jihatdir.

Har bitta yaratilgan asar – bu millatning koʻzgusi. Chunki ushbu asarda aynan shu millat mentaliteti, maʼnaviy turmush tarzi, urf-odat va milliy anʼanalari, tarixi, dini, adabiyoti, sanʼati, geografik joy nomlari va shu kabi barcha milliy xoslik, bir soʻz bilan aytganda – milliy kolorit bilan sugʻorilgan boʻladi.

Badiiy adabiyotning asosiy materiali soʻz ekan, demak, badiiy tarjimada ham faqat lisoniy ashyolar – soʻzlar bilan bogʻliq kolorit oʻrganilmogʻi kerak.² Gʻ.Salomovning ushbu fikri tarjimonlar oldiga yanada ulkan maʼsuliyatni qoʻyadi. Endi tarjimon asliyat asari tegishli boʻlgan millatni har tomonlama oʻrganmogʻi kerak boʻladi.

Realiya-soʻzlarni tarjima qilish tarjimashunoslikning eng muammoli, shu bilan birga sermahsul sohalaridan biri hisoblanadi. Xos soʻzlar, yaʼni realiyalar tarjimasida eng avvalo ularning muayyan matnlarda ifodalanib kelayotgan axborot jihati va uslubiy vazifalarni aniqlash, keyin esa tarjima tilida ularga mos shu til meyoriga xos lisoniy vositalarni tanlashga toʻgʻri keladi. Realialar tarjimasida oddiy leksik birliklardan tubdan farq qiladi, ularni tarjima qilishda transliteratsiya va transkripsiya usulidan foydalanib, ularning etimologiyasi va izohlari lingvomamlakatshunoslik nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Realialarni tarjima qilayotgan matnda qoʻllash bir tomondan, asl nusxani qoʻllanilishiga, boshqa tomondan esa matn mazmunini ochib berishda tarjimon qanday vositalardan foydalanayotganligiga bogʻliqdir. □

Soʻnggi yillarda tarjimashunoslik sohasida realialar tarjimasiga boʻlgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, bu kabi xos soʻzlar tarjimasida nafaqat koʻpgina qiyinchiliklar va muammolarga, balki xato va kamchiliklarga ham duch kelib qolamiz.

¹ С.Влахов, С.Флорин. Непереваемое в переводе. Мастерство перевода. М.: 1970, С. 438.

² F.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. Ўқитувчи, 1983. Б.98

Mashhur fransuz realist yozuvchisi Onore de Balzakning bilvosita rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Yevgeniya Grande” romanidagi ba’zi bir milliy koloritdagi so‘zlarning tarjimada berilishi xususida fikr yuritamiz.

Diniy realiyalar tarjimasi borasida gap ketganda, ko‘p hollarda tarjimonlar asliyatni “o‘zbekchallashtirish” usulini qo‘llaydilar. Oqibatda, abbat imomga, rekviyem janozaga aylanib qoladi. Bunday kamchiliklarni Balzakning “Yevgeniya Grande” romani tarjimasida ham uchratish mumkin:

Maintenant, le cercueil est une transition peu redoutée. L’avenir, qui nous attendait par delà le Requiem, a été transporté dans le présent.

(Balzac. *Eugenie Grandet*, p. 87).

Ныне загробной жизни мало боятся. Будущее, ожидающее нас по ту сторону Реквиема, переместилось в настоящее.

(Бальзак. *Евгения Гранде*, стр.135).

Hozir u dunyoga jo‘nash tobut bilan ifodalanadi, ammo tobutdan hech kim qo‘rqmaydi. Janoza o‘qilgandan keyin biz ravona bo‘luvchi o‘sha boqiy dunyo hozir shu foniy dunyoga ko‘chib o‘tgan. (Balzac. *Yevgeniya Grande*, 94 bet).

Ko‘rinyaptiki, asliyatdagi *Requiem* realiyasini rus tarjimoni V.Verxovski rekviyemligicha qoldirgan, qolaversa, bu so‘z rus xalqiga yot ham emas. Requiem – rekviyem, ya’ni katoliklar cherkovida o‘qiladigan motam ibodati (FO‘L). Xo‘sh, mutarjim Davron tomonidan amalga oshirilgan tarjimada bu realiyani **janoza** deb olish to‘g‘ri bo‘ladimi? Qaysidir ma’noda to‘g‘ri ham deylik, lekin xristian dinida janoza o‘qiladimi? Xristianlar rikviyem ibodatini amalga oshirishadi. Lekin rekviyemni janoza bilan almashtirib bo‘lmaydi, nega deganda, ular boshqa-boshqa dinlarga xos so‘zlar hisoblanadi. Janoza – faqat islom dini (musulmonlar)gagina xos realiya. Har bir millatda faqat shu xalqning urf-odatlarini bilan bog‘liq turli realiyalar mavjudki, bu kabi predmetlar nomlarini boshqa tilda ekvivalentar

tarjimada berib bo‘lmaydi¹, degan nazariyaga asoslanib, bu o‘rinda tarjimon transkripsiya va transliteratsiya usuliga yondashib, *Rekviyem o‘qilgandan keyin...* deb tarjima qilib, *rekviyem* so‘zining izohi ixtibosda keltirilganda adekvat tarjimaga da’vo qilishi mumkin edi.

Yana bir misol:

– *Ah! ah! Vous avez fait fête à votre neveu...* (*Eugenie Grandet*, p. 78).

– *Эге! Вы устроили праздник племяннику...* (*Евгения Гранде*, стр.125).

– *Ehe! – Jiyanimiz kelganiga hayit qilib yuboribsiz-ku!* (*Yevgeniya Grande*, 81)

Bu gapdagi *fête* so‘zini realiya deyish aslida xato, chunki bu so‘z barcha tillarda mavjud; rus tilida – *праздник*, o‘zbek tilida – *байрам*, *базм* deb tarjima qilinadi. Lekin asarni jiddiy kuzatishlar bilan tahlil qilganimizda shu narsa aniq bo‘ldiki, yuqoridagi misollar *fête* – *праздник* – *hayit* deb tarjima qilingan. Hayit so‘zi ham musulmonlar olamiga xos, bundan tashqari, asar fransuz millatiga tegishli va bu gap janob Grande tilidan yangrayapti. Shuning uchun *hayit qilib yuboribsiz* komponentini *bayram qilib yuboribsiz* tarzida o‘girilsa to‘g‘riroq bo‘lardi.

Keltirilgan misollarimizning o‘zidayoq diniy realiyalarni o‘zbek tilida berishning ma’lum tamoyillari yo‘qligidan darak berib turibdi. Diniy realiyalar tarjimasida R.Shirinovanning shunday fikrlari bor: Tarjimonlarning asliyat tilida so‘zlashadigan xalq amal qiluvchi diniy ta’limot va uning tarixini yaxshi bilmasliklari, katolik cherkov tuzilishi hamda xristian diniy marosimlari va kundalik amaliyotidan yetarli xabardor emasliklari bilan izohlanadi. Natijada, bu muammolarni har bir tarjimon o‘z tarjima prinsiplaridan kelib chiqib, o‘zicha hal qiladi. Diniy realiyalar borasidagi bu xilma-xillik tarjimaning sifatiga ta’sir qilib qolmay, o‘quvchida u yoki bu xalqning e’tiqodiy odat va marosimlari xususida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi, uni chalg‘itadi. Bu hol diniy realiyalar tarjimasida bilan

¹ Г.К.Одилова. Таржимада инсон кифаси, феъл-атвори, миллий колоритдаги сўзларни узатиш муаммоси// Бадий таржима тилшунослик, адабиётшунослик ва маданиятлараро алоқалар контекстида // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Жиззах: 2011, Б. 259.

bog'lik xilma-xillikka chek qo'yib, bu borada muayyan meyorlarni belgilab olishni taqozo qiladi¹.

Asar tarjimasida bu kabi kamchilik bilan bir qatorda uning yutuqlari ham talaygina. Bulardan biri, O.de Balzak asarlarida tez-tez uchraydigan **bonhomme** so'ziga to'xtalsak.

Cette clémence insolite, cette amère gaieté, frappèrent madame Grandet, qui regarda son mari fort attentivement. Le bonhomme... (*Eugenie Grandet*, p. 92)

Это необычное милосердие, эта желчная веселость поразили г-жу Гранде, и она пристально посмотрела на мужа. Добрряк... (*Евг. Гранде, 137*).

Bu g'ayri oddiy rahmdillikdan, bu istehzodan Grande xonim hayron qoldi, shuning uchun ham eriga tikilib qaray boshladi. Choli tushmagur...

(*Yevgeniya Grande*, 98)

Yozuvchi bu so'zni o'zi ham juda yaxshi ko'rsa kerakki, uni asarlarining deyarli har sahifasida qo'llaydi. "Yevgeniya Grande"da janob Grandega, "Gorio ota"da Gorio ota, Ejen Rastinyaklarga nisbatan ishlatilib kelingan "**bonhomme**" so'ziga Balzakning o'zi asar ichida shunday izoh berib o'tadi: "Fransiyaning Turen, Anju, Puatu va Bretan shaharlarida kishining bag'ri toshligi yoki ko'ngli yumshoqligidan qat'i nazar, ma'lum yoshga yetgach, u shu so'z bilan ta'birlanaveradi, lekin bu so'z uning hech qanday shaxsiy xususiyatlarini ifodalamaydi" [Евгения Гранде, 92]. Bizning tarjimonlarimiz bu atamani shunday mohirlik bilan, topqirlik bilan "**tushmagur**" deya talqin qildilarki, bu bilan so'zning mohiyatini to'la ochib bera olgan. Qolaversa, biz o'zbeklarda ham *yigiti tushmagur*, *bolasi tushmagur* degan iboralar mavjud. Bu so'z asliyatdagi bonhomme so'ziga to'laqonli muqobil bo'la oladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir millatga xos bo'lgan bunday realiyalarni tarjima qilish tarjimonga ancha mushkullik tug'diradi. Tarjimon milliy koloritdagi so'zlarni tarjimada berishdan avval tarjimani o'qigan kitobxonning ma'lumotlarni qabul qilish darajasi va tasavvur

¹ Р.Х.Ширинова. Диний реалияларни бадиий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2002. Б. 14.

hosil qilish effekti asliyatni o'qiganda unda paydo bo'ladigan tarjimaning asliyatga qay darajada yaqinligini aql tarozisiga tortib ko'rishi kerak. Agar realiyani tarjima tilidagi biron-bir so'zga almashtirganda asliyatdagi tasavvurni bermasa yoki umuman aks ma'noni anglatsa, muallif maqsadidan kelib chiqib, bu so'z yoki iborani transkripsiya va transliteratsiya usulida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, badiiy asarni, xususan undagi realiyalar va obrazli frazeologik birikmalarni tarjima qilishda tarjimon original tekstga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Chunki frazeologik birikmalar noto'g'ri tarjima qilinishi va realiyalarning tarjimada buzib berilishi asar tilini nursizlantirishi bilan birga, undagi badiiy qiymatga ham putur yetkazadi. Xususan, badiiy asardagi milliy koloritdan uni mahrum qilib qo'yadi.

XULOSA

1. Fransuz-o‘zbek adabiy aloqalari bugungi kunda ham yuksalish davrini boshdan kechirmoqda. Bu esa har ikkala xalqning bir-birini yaqindan tanishida, tushunishida, tinchlik va demokratiya ishi yo‘lidagi birdamligida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. Fransuzcha frazeologik birliklar hamda maqol va matallarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida Y.I.Retskerning quyidagi muvofiqlik kategoriyalariga tayanish maqsadga muvofiq:

- a) ekvivalent tarjima;
- b) analogik tarjima;
- v) adekvat tarjima;
- g) kalka (so‘zma-so‘z) tarjima.

3. Maqol va matallar tarjimasida tarjima tilidan mos ekvivalent topish yoki buning iloji bo‘lmaganda, o‘ziga yarashqli lo‘nda, hikmatomuz tabdilda ma’nosini chiqarish maqsad qilib qo‘yiladi.

4. Maqol va matallar milliylikni ifoda etish chog‘ida o‘zbekcha tarjimalarda quyidagi hollar uchraydi:

– tarjimada aslyat milliy koloritini tarjima tilining xos-milliy koloriti bilan almashtirish: *L’abime appelle l’abime. – Beva xotinga Buxorodan it huradi.*

– aslyat tilining koloritini tarjima tilining koloriti bilan almashtirish: *Qui langue a à Rome va. – Язык до Киева доведет. – So‘rab-so‘rab Makkaga boribdi.*

– milliy fransuz koloritini xolis kolorit bilan almashtirish: *Ce que Jeannot n’apprend pas, Gros — Jean ne le saura jamais. — Yoshlikda o‘rgangan hunar, o‘zinga o‘ljaga qolar.*

5. Frazeologik birliklarning paydo bo‘lishidan tortib hozirgi kunimizdagi bo‘lgan davrda ushbu birliklarning rivojlanishi, o‘zgarishlar va ular ustida olib borilgan mashxur tilshunoslarning ilmiy ishlari va izlanishlarini kuzatish

yangiliklardan xabardor bo‘lish bizning bilim doiramizni kengaytirishga, frazeologiya haqida batafsilroq fikrlashga o‘rgatadi.

6. Realialar masalasi – badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotida eng qiyin va eng kam ishlatiladigan muammodir. Realialar xalqning butun kundalik hayoti xususiyatlarini, uning o‘tmishi va hozirini aks ettiradi va bir millatni boshqasidan farq qiluvchi xususiyatlarini anglashga imkon beradigan alohida alomat hisoblanadi. Binorin, tarjimada milliy koloritdagi so‘zlarni qayta gavdalantirish asliyat milliy o‘ziga xosligining butun rang-barangligini adekvat ifodalashga imkon beradi.

7. Realialarni tarjima qilish jarayonida ba’zan tarjimonlar asliyatni “o‘zbekchallashtirish” usulini qo‘llaydilar: *une pièce de cent sous – монета в сто цы – yuz so‘mlik pulini.*

8. Realialarning stilistik roli, ko‘plab tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ularni ifoda etish usullarini tanlash asosiy mezon hisoblanadi. Shu bois, tarjimonning eng birinchi vazifasi – kontekst ichiga kirib borish, har bir so‘zning mantiqiy va stilistik yukini salmoqlab ko‘rish, agar kitobxon o‘z diqqatini shularga qaratgan bo‘lsa, tarjimaning qulay usuli transliterasiya hisoblanadi.

9. Badiiy asarni, xususan undagi realialar va obrazli frazeologik birikmalarni tarjima qilishda tarjimon original tekstga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshishi lozim. Chunki frazeologik birikmalar noto‘g‘ri tarjima qilinishi va realialarning tarjimada buzib berilishi asar tilini nursizlantirishi bilan birga, undagi badiiy qiymatga ham putur yetkazadi. Xususan, badiiy asardagi milliy koloritdan uni mahrum qilib qo‘yadi.

Resumé

Les locutions phraseologique sont des unités lexicales qui par leur fonctionnement se rapprochent souvent des mots ce qui permet d'envisager leur formation à côté de la formation des mots.

Le premier examen approfondi de la phraseologie française a été entrepris par le linguiste suisse Charles Bally. A. Sechehaye, J. Marouzeau soulèvent aussi certaines questions ayant trait à la phraseologie française.

La phraseologie étudie l'agencement de mots particuliers. En se combinant dans la parole, les mots forment deux types d'agencement essentiellement différents. Ce sont d'une part des groupements de mots individuels, passagers et instables; les liens entre les composants de ces groupements se rompent sitôt après leur formation et les mots constituant le groupe recouvrent la pleine liberté de s'agencer avec d'autres mots. Ces groupements de mots se forment au moment même du discours et dépendent exclusivement de l'idée que le locuteur tient à exprimer. Ce sont des groupements tels que: un bon camarade, un mauvais camarade, un grand travail, un grand édifice.

Les locutions phraseologiques, à leur tour, diffèrent par le degré de leur stabilité et de leur cohésion. Ch. Bally distingue deux types essentiels de locutions phraseologiques: il nomme unités celles dont la cohésion est absolue et séries celles dont la cohésion n'est que relative. Ainsi, bon sens dans le bon sens suffit pour montrer l'absurdité d'une pareille entreprise représente une unité phraseologique; grièvement blessé, ou grièvement ne peut être employé qu'avec blessé, forme une série phraseologique.

La classification des locutions phraseologiques proposée par V. Vinogradov est plus complète que celle de Ch. Bally, V. Vinogradov distingue les locutions phraseologiques suivantes: les locutions soudées, les ensembles et les combinaisons phraseologiques. Les deux premiers types de locutions constituent un groupe synthétique; le dernier type représente un groupe analytique.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Kitoblar

1. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: “O‘zbekiston”, 2009, 40 bet.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998, – 536 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
4. Balli SH. Французская стилистика. М.: ИИЛ, 1961.
5. Balzak, Onore de. Gorio Ota. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 296 bet.
6. Balzak, Onore de. Yevgeniya Grande. T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1964, 212 bet.
7. G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. Toshkent: “Mehridaryo” nashriyoti, 2008.
8. Jacques Pinlaux. Proverbes et dictons français. Paris, 1986.
9. Mirhaydarova N.K., Musayev S.S., Aliqulov T. fransuzcha maqollarning o‘zbekcha-ruscha muqobillari. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1994. 128 bet.
10. Retsker Y.I. О закономерных соответствиях при переводе на родной язык. Сб. “Теория и методика учебного перевода”, М., Изд-во АПН РСФСР, 1950.
11. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. O‘qituvchi, 1983.
12. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. Toshkent: 1983.
13. Salomov G‘. Til va tarjima. Toshkent, “Fan”, 1966.
14. Vlahov S., Florin S. Непереводимое в переводе. Мастерство перевода. М.: 1970.

II. Simpozium va konferensiya materiallari

15. Badalov F.A. Frazologik birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganishdagi ba’zi-bir mulohazalar. Xalqaro simpozium materiallari. Termiz. 2004.

- 16.Imyaminova SH.S. Adekvat tarjimaga erishish tamoyillari. // Badiiy tarjima tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo aloqalar kontekstida. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax: JDPI, 2011.
- 17.Odilova G.K. Tarjimada inson qiyofasi, fe'l-atvori, milliy koloritdagi so'zlarni uzatish muammosi// Badiiy tarjima tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo aloqalar kontekstida // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Jizzax: 2011.

III. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

- 18.Ermatov B.S. Французская реалистическая новелла XIX века в переводе на узбекский язык. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.
- 19.Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok...dis.: 10.02.02. O'zb.FA Tilshunoslik instituti, T., 1991.
- 20.Mirzayev I.K. Проблема передача слов, обозначающих реалии французской жизни, на узбекский язык. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1975.
- 21.Musayev K. Стилистические вопросы художественного перевода с английского на узбекский язык. Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент: 1967.
- 22.Narzikulov A.M. Французская фразеология и вопросы французо-узбекского художественного перевода. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1969.
- 23.Pulatov YU. Зарубежная литература в Узбекистане и перевода новелл Ги де Мопассана. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1963.
- 24.Shirinova R. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari (Fransuz adabiyotining o'zbekcha tarjimalari misolida). Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. Toshkent, 2002.

25. Xolbekov M.N. Uzbeksko-franuzskie literaturnye vzaimosvyazi (v aspekte perevoda, kritiki i vospriyatiya). Avtoref. diss. ... dok. filol. nauk. – Tashkent, 1991.
26. Xolbekov M.N. Franzuzskaya khudozhestvennaya literatura v perevodaх na uzbekskiy yazyk (Istoriya i perevodcheskiy opyt). Avtoref. diss. ... kand. filol. Nauk. – Tashkent: 1982.

III. Lug‘atlar

27. Axmanova A.S. Slovarь lingvistikheskix terminov. M.: 1966.
28. Ganshina K.A. Franzuzsko-russkiy slovarь. Moskva: “Russkiy yazyk”, 1987.
29. Dal V.I. Tolkoviy slovarь zhivogo velikoruskogo yazyka, t. Tretiy, M.: 1955.
30. Retsker. Y.I. Franzuzsko-russkiy frazeologicheskiy slovarь. Moskva: 1963.
31. Rozental D.Э., Telenkova M.A. Slovarь-spravochnik lingvistikheskix terminov. M.: 1976.
32. Sodiqova M. Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at. Toshkent: 1993.
33. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at / tuzuvchilar: X.Ibragimov, A.Mamadaliyev, U.Mansurov va boshq. T.: 2008.
34. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. Toshken: “O‘qituvchi”, 1985.

IV. Internet sahifalari

35. <http://ziyonet.uz/>
36. <http://google.co.uz/>
37. <http://google.fr/>
38. <http://fr.wikipedia.org/>